

O'qituvchi nimani o'ylaydi?



So'nggi yillarda o'qituvchilarga ko'plab yengilliklar bo'ldi. Masalan, paxta terimi, ko'cha supurish, tashkilotlarga "beminnat" yordam berish kabi ishlardan qutuldik. Faqat bir holat uch-to'rt yil avval qanday bo'lsa, bugun ham shunday davom etmoqda. Ta'til vaqtidagi tezkor, to'xtovsiz topshiriqlar.

4-bet

"Yillar davomida yig'ilib qolgan muammolar bor"

Fuqarolardan ko'plab ariza va shikoyatlar tushayotgani ham sohaga jiddiy e'tibor qaratishni talab etmoqda.

5-bet

Bolalar futboli shunday bo'lsa...

"Nasaf" professional futbol klubiga qarashli Nishon tumanidagi bolalar va o'smirlar futbol maktabi faoliyatiga bir nazar



15-bet

Kuch — bilim va tafakkurda

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2019-yil 27-iyul, shanba № 58 (9227)

Xalq ziyolilari gazetasi



AES mutaxassislari O'zbekistonda tayyorlanadi

7-bet



Fikr, mulohaza, taklif

Adabiy ta'lim metodikasidagi o'n muammo

Mustaqillikning dastlabki yillarida paydo bo'lgan ayrim qiyinchiliklar egamanlikning chorak asri davomida ham to'laligicha bartaraf etilgani yo'q.

O'tmish tuzumning qator illatlaridan qutulish uchun ruhiyati mustaqillik davrida shakllangan avlod yetilishi kerak. To'g'ri, mamlakat mustaqilligiga erishilgandan buyon tug'ilgan avlodning oldi bugun o'ttizga yaqinlashib qoldi. Lekin ularning barchasi shaxs sifatida erkinmi? Ular ruhan ozodmi? Ma'naviyati sog'lommi? Mana shu savollar kishini o'ylantiradi. Ruhana mustaqil bo'lgan, o'z haq-huquqini tanigan, o'z "men"i bor kishilar tomonidan tarbiyalangan bolalargina tom ma'noda mustaqil shaxs bo'lib shakllanishlari mumkin. Chunki o'zi ma'nan noto'kis, umuminsoniy va milliy qadriyatlardan yiroq, fikran qashshoq odam o'zgalarni aqlan ham, ruhan ham sog'lom etib tarbiyalay olmaydi. Ya'ni, "har qanday tarbiya avval tarbiyachini tarbiyalashdan boshlanishi" kerak.

Avlodlarni milliy qadriyatlar asosida ma'nan

sog'lom qilib tarbiyalashda badiiy adabiyotning o'zni beqiyos. Lekin badiiy asardagi kitobxon shaxsiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jihatlari, matnda aks etgan hayotiy va badiiy haqiqatlarni ilg'ash, ularning ko'ngilni tozalashga xizmat qiladiganlarini topib, o'z tabiatiga singdirish shakllanayotgan shaxsda osonlik bilan kechadigan jaryon emas. Ta'lim-tarbiya tizimida bu kabi murakkab va mas'uliyatli ishlarni amalga oshirish "Adabiyot o'qitish metodikasi" deb nomlanuvchi fan va o'z kasbini yaxshi ko'radigan, yaxshi biladigan o'qituvchining zimmasida.

Adabiy ta'lim metodikasi ilmida esa yechimini kutayotgan qator nazariy va amaliy muammolar mavjud. Quyidagilarni mazkur sohaga xos bo'lgan muammolar sifatida sanab ko'rsatish mumkin:

8-9-betlar

Dolzab mavzu

6 yoshli bola maktabga tayyormi?



Odatda, 7 yoshda har bir sog'lom o'g'il-qiz maktabga boradi. Ammo ayrim ota-onalar farzandini 6 yoshdan o'qishga berishga oshiqadi. Ayni kunda 6 yoshli bolalarning ota-onalari farzandini maktabga yuborish yoki yubormaslik haqida o'ylayotgani ham sir emas. Ayrimlar "6 yoshli bola bilim olishga qiyinaladi, hali o'yinqaroq bo'ladi", desa, ayrimlar "Bir yil bo'lsa ham oldinroq chiqsin, qiynalsa ham eplab ketadi", deya fikrlaydi. Xo'sh, bu borada kimning fikri to'g'ri? Aslida, 6 va 7 yoshli bola o'rtasida qanday farq bor? 6 yoshda ham bola maktab yuklamalarini qiyinchiliksiz, oson o'zlashtirishi mumkinmi?

6-bet

Bizni internetda ham kuzating!



www.marifat.uz



/marifat.uz



@marifatziyo

Maqsadimiz – Samarqandni jahon turizm markaziga aylantirish, aholi uchun zamonaviy turmush sharoiti yaratish

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish borasidagi islohotlar, amalga oshirilayotgan bunyodkorlik ishlari va yirik loyihalar bilan tanishish maqsadida 26-iyul kuni Samarqand viloyatiga tashrif buyurdi.

Davlatimiz rahbari safarlar chog'ida tuman va shaharlarda bunyodkorlik ishlari ko'lamini kengaytirish, sanoat, turizm, qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish kabi sohalarni jadal rivojlantirish, aholi uchun munosib turmush sharoiti yaratish masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Shu asosda dasturlar tuzilayapti, ularni amalga oshirish bo'yicha yo'l xaritalari tasdiqlanib, hayotga tatbiq etilmoqda.

Xususan, joriy yilning birinchi yarmida 2019-2020-yillarda amalga oshirish belgilangan umumiy qiymati 19,6 trillion so'mlik 987 loyiha 572 tasi bo'yicha 2,3 trillion so'mlik investitsiyalar o'zlashtirilib, 300 tasi to'liq yakuniga yetkazildi. 4 mingdan ziyod yangi ish o'ri yaratildi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar jalb etish doirasida 88,2 million AQSH dollari o'zlashtirildi. Bu 2018-yilning shu davri bilan taqqoslaganda, qariyb 1,5 barobar ko'pdir.

Investitsiya dasturiga ko'ra, bu yil Samarqand viloyatida 565,7 milliard so'm mablag' o'zlashtirilib, 151 obyektida qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirish rejalashtirilgan. Hozirgacha 22 maktab, 8 tibbiyot muassasasi va 12 ichimlik suv obyektida belgilangan ishlar yakunlandi.

Prezidentimiz Samarqand xalqaro aeroportida mazkur havo darvozasi rivojlantirishga oid loyiha bilan tanishdi.

1927-yilda faoliyat boshlagan aeroportda 2009-yilgacha bir necha marta qurilish-ta'mirlash ishlari bajarilgan. Lekin bugun aeroportning yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish imkoniyatlarini zamon talablari darajasida, deb bo'lmaydi. Bu yerdan haftasiga 37 marta ko'riy va mahalliy parvozlar amalga oshirilib, yil boshidan buyon 220 ming yo'lovchiga xizmat ko'rsatilgan.

Keyingi yillarda yurtimizda turizmni rivojlantirish borasidagi islohotlar tufayli Samarqandga keladigan sayyohlar oqimi sezilarli darajada oshdi. Ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilning dastlabki olti oyida viloyatga 1 million 433 ming turist tashrif buyurgan. Ularning 227 ming nafarini xorijlik sayyohlar tashkil etadi, Ushbu raqamlarni ikki yil oldingi ko'rsatkichlar bilan qiyoslaganda, turistlar oqimi to'rt barobar oshganini ko'rish mumkin. Kelgusida sayyohlar oqimini yanada ko'paytirish, buning uchun zarur infratuzilma yaratish borasida ko'rilayotgan chora-tadbirlar Samarqandning havo darvozasi imkoniyatlarini ham kengaytirishni taqozo etayapti.

Taqdim etilgan loyihaga ko'ra, aeroportda soatiga 600 yo'lovchiga xizmat ko'rsatadigan yangi terminal qurish, uchish-qo'nish yo'lagini rekonstruksiya qilish, samolyotlar turargohini kengaytirish, radiolokatsiya tizimlarini takomillashtirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari qurilish ishlarini sifatli va belgilangan muddatlarda amalga oshirish, milliy me'morlik an'analarga rioya etish kerakligini ta'kidladi. Aeroport faoliyatida zamonaviy boshqaruvni joriy qilish, rekonstruksiya ishlari amalga oshirilayotgan paytda esa Samarqandga poyezd

va avtobuslar qatnovini ko'paytirish, aholi va turistlariga muqobil qulayliklar yaratish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Aeroportni xalqaro standartlar asosida rivojlantirish mamlakat iqtisodiyoti uchun juda muhim. Aksariyat davlatlar xalqlari yurtimizni ko'hna Samarqand orqali tasavvur qiladi. Shuning uchun ham O'zbekiston haqida gapirganda, avvalo, bu qadim shaharni tilga olamiz. To'g'ri, ayni paytda viloyatga turistik qatnovlar asosan "Afrosiyo" tezyurar poyezdlari orqali amalga oshirilmoqda. Ammo xalqaro transport tizimida bunday imkoniyatlar yaratilmagan. Haqiqat shuki, Buyuk Ipak yo'lini birlashtirgan shaharlar orasida Samarqandchalik qadim tarixga ega manzil yo'q. Afsuski, shunga mos infratuzilma yaratishga avvalroq e'tibor qaratmadik, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezidentimiz aeroportning bugungi holati talab darajasida emasligini qayd etib, mutasaddilarga uning sig'imini oshirish, kamida 20 samolyotga xizmat ko'rsatadigan zamonaviy infratuzilma tashkil etish va bu ishlarni bir yarim yillik muddatdan kechiktirmay bajarish yuzasidan topshiriqlar berdi.

Shavkat Mirziyoyev Samarqand shahridagi Islom Karimov maqbaramajmuasiga tashrif buyurib, mamlakatimizning Birinchi Prezidenti qabriga gul qo'ydi. Qur'on tilovat etilib, marhumning haqqiga duo qilindi.

Nuroniylar, ulamlar bilan suhbatda Islom Karimovning xalqimiz, davlatimiz manfaatli yo'lidagi xizmatlari, insoniy fazilatlarini yodga olindi.

Davlatimiz rahbari Samarqand viloyatiga tashrifi davomida Oqdaryo tumanidagi "Pure milk Oqdaryo" fermer xo'jaligi dallasida bo'lib, mirishkorlar bilan suhbatlashdi.

1 ming 360 gektar yer maydoniga ega mazkur fermer xo'jaligi 634 gektarda paxta, 50 gektarda g'alla, 366 gektarda ozuqa va boshqa turdagi qishloq xo'jaligi ekinlarini parvarishlamqda. 400 nafardan ortiq kishining bandligi ta'minlangan.

Xo'jalik a'zolari joriy yil g'alladan 283 tonna hosil olib, 135 million so'm foyda ko'rdi. G'alladan bo'shagan maydonlarga chorva uchun ozuqa sifatida makkajo'xori ekilgan. 2100 boshdan ziyod yirik shoxli qoramol boqilayotgan fermer xo'jaligi uchun bu ayni muddaodir.

G'o'za maydonlarini xorij texnologiyasi asosida tomchilatib sug'orish joriy etilgan. Bu mineral o'g'it va suv sarfini kamaytirish, agrotexnika ishlari samaradorligini oshirish hamda ekin parvarishi bilan bog'liq xarajatlarni qisqartirishda muhim omil bo'lmoqda. Bugungi kunda bir tup g'o'zada 3–4 dona ko'sak, 7–10 dona gul, 10–12 dona shona mavjud. Xo'jalik a'zolari bu yil paxta hosildorligini 45 sentnerga yetkazishni rejalashtirgan.

Prezidentimiz mamlakatimizda barcha sohalar qatori qishloq xo'jaligida ham asosiy ustuvor maqsad xalqimiz manfaatini ekanini qayd etib, qaysi mahsulot ko'proq daromad keltirsa, o'shani ekish, buning

uchun urug'chilik va nav tanlashga alohida e'tibor berish, sohaga ilmiy yondashish zarurligini ta'kidladi. Viloyatdagi fermer xo'jaliklari va klasterlarda tomchilatib sug'orishni keng joriy etish, hosildorlik past maydonlarda g'alla ekishni qisqartirib, yuqori daromad keltiradigan meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish, ularni qayta ishlash uchun minitexnologiyalar yetkazib berish bo'yicha ko'rsatmalar berdi.

Qanday qilib odamlarning daromadini oshiramiz, degan savol meni har kuni o'ylantiradi. Aslida bu savol barcha rahbarlarning tinchini buzishi kerak. To'g'ri foydalanishni bilsak, har bir hudud, har bir sohada keng imkoniyatlar bor. Qishloq xo'jaligida yangi texnologiyalarni joriy qilib, hosildorlikni oshirish, xomashyoni qayta ishlashni yo'lga qo'yish lozim. Mahsulot qayta ishlansa ham daromad ko'payadi, ham yangi ish o'rinlari yaratiladi. Manfaatarlik yuqori bo'lishi uchun sarflangan xarajati qoplab, foyda ko'rishni ko'zlab, mehnat qilish kerak. Ertangi kuni bugunidan yaxshi bo'lishi uchun har bir odam o'zi harakat qilmog'i zarur. Hozirgi zamonda kim yutadi – intilgan yutadi, mehnat qilgan yutadi, dedi davlatimiz rahbari.

Viloyatning sayyohlik salohiyatini yanada oshirish, turistlar uchun zamonaviy sharoit va imkoniyatlar yaratish maqsadida Samarqand tumanidagi eshakk eshish kanali atrofida turistik markaz qurish rejalashtirilmoqda.

Prezident Shavkat Mirziyoyev bu yerga tashrif buyurib, markaz loyihasi bilan tanishdi. Unda belgilanishicha, majmua uchun 360 gektar yer ajratilib, 80 gektarda anjumanlar saroyi, mehmonxonalar va boshqa obyektlar qurilishi mo'ljallangan. Mehmonxonalar 3, 4 va 5 yulduzli bo'lib, barcha toifadagi sayyohlarni qamrab oladi. Shuningdek, sayilgohlar, suzish joylari, sun'iy orolchalar, restoranlar tashkil etiladi.

Samarqandga kelgan sayyohlar, mahalliy aholi dam olish uchun qayerga boradi? Hozircha aytarli, ko'zga ko'ringan bunday joy yo'q. Shuning uchun chet ellik sayyohlar asosan tarixiy obidalarini ko'rish va muqaddas qadamjolarini ziyorat qilish bilan cheklanmoqda. Vaholanki, Samarqandda turistlar dam olishi, madaniy hordiq chiqarishi uchun sharoit yaratishga imkoniyat juda katta. Hududda bu masalaga alohida e'tibor qaratiladi. Bu maskan ziyorat turizmi bilan hamohang bo'lishi, xalqimiz, chet ellik sayyohlar bu yerga kelib maroqli hordiq chiqarishi uchun har tomonlama qulay joyga aylanishi kerak. Turist Samarqandga bir-ikki kunga emas, bir necha kunga kelsin, ketish haqida o'ylamasin. Bu Samarqand iqtisodiyoti uchun yana bir o'sish nuqtasi bo'ladi, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Joriy yil 9-10-iyul kunlari Samarqandda MDH Turizm kengashining navbatdagi majlisi va Hamdo'stlik mamlakatlarining birinchi turistik yarmarkasi o'tkazildi. Mazkur tadbirlar chog'ida yurtimizga, jumladan, Samarqandga chet ellik sayyohlarni jalb etish bo'yicha xorijiy firma va kompaniyalar bilan 50 dan ortiq shartnoma imzolandi. Shuningdek, bu yil Samarqand shahri Jahon sayyohlik shaharlari federatsiyasiga (WTCF) a'zo bo'ldi. Yaqin yillarda Samarqand shahrini turistik xabga aylantirish rejalashtirilayapti.

Bu sa'y-harakatlar tufayli kelasi yillarda viloyatga sayyohlar oqimi keskin oshishi shubhasiz. Xususan, joriy yil 510 mingdan ziyod xorijlik mehmon kelishi kutilmoqda. Ikki yilda bu ko'rsatkichni 2 millionga, mamlakat bo'yicha esa 10 millionga yetkazish mo'ljallangan.

Buning uchun Samarqandda sayyohlikni rivojlantirish uchun munosib sharoit zarur. Shu maqsadda 2019-2020-yillarda viloyatda turizm sohasida qiymati 220 million dollar bo'lgan 164 loyihani amalga oshirish belgilangan. Ayni paytda bu borada izchil ishlar olib borilmoqda.

Prezidentimizga viloyatda ko'p qavatli uy-joylar qurish, ichimlik suvi va oqova tarmoqlarini modernizatsiya qilish, Samarqand shahrini markazlashgan issiqlik energiyasi bilan ta'minlashni yaxshilash borasidagi ishlar to'g'risida ham ma'lumot berildi.

Davlatimiz rahbari avvalgi yillarda viloyatga tashrifi chog'ida ko'hna shahar aholisining uy-joyga ehtiyoji yil sayin oshib borayotgani va uni qondirish uchun Samarqand markazida, qurilish me'yorlariga to'g'ri kelsa-kelmasa, uy-joy quravergandan ko'ra, tevarakda zamonaviy binolar barpo etish zarurligini ta'kidlagan edi.

Ana shu topshiriq asosida o'tgan yili Samarqand tumani Qorasuv massividan shahar uchun 50 gektarga yaqin yer ajratilib, ko'p qavatli uylar, ijtimoiy soha obyektlari qurilishi boshlandi. 2018-yilning o'zida "O'sshaharqurilishinvest" injiniring kompaniyasi buyurtmasi asosida jami 1 ming 344 xonadondan iborat 7 qavatli 32 arzon uy barpo etildi. Bundan tashqari, "Qishloq qurilish invest" injiniring kompaniyasi tomonidan Mudofaa, Ichki ishlar, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, Milliy gvardiya xizmatchilari va yosh oilalarga mo'ljallangan 5 qavatli 12 turarjoy qurilib, foydalanishga topshirildi.

Hududga minglab aholi ko'chib kelishini hisobga olib, ta'lim va tibbiyot muassasalari, savdo va maishiy xizmat ko'rsatish shoxobchalari, umuman, aholi ehtiyojlarini qondirish uchun nimaiki zarurat bo'lsa, barchasini shu yerning o'zida yaratishga e'tibor qaratildi. Bugun ushbu maskan tom ma'noda zamonaviy shaharcha ko'rinishini olgan.

Prezidentimiz joriy yil 11-yanvar kuni viloyatga tashrif chog'ida yangi massivda bo'lib, amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari bilan tanishgan, shaharchani yanada kengaytirish bo'yicha topshiriqlar bergan edi. Shundan kelib chiqib, qo'shimcha ravishda 16,4 gektar maydon ajratildi va "Agromir bildings" korxonasi tomonidan 2019-yilda 18, 2020-yilda 59 ko'p qavatli uy qurilishi belgilangan. Hozir bu yerda xorijiy davlatlarning ilg'or qurilish texnologiyalari asosida 12, 14 va 16 qavatli uylar barpo etilmoqda.

Bundan tashqari, ayni paytda Urgut va Tayloq tumanlarida ham ana shunday uylar qurilishiga kirishilgan.

Prezidentimiz yangi uylarni adolatli taqsimlash, qurilish ishlari sifatiga alohida ahamiyat berish, ichimlik suvi va oqova tarmoqlarini yaxshilash, Samarqand shahrini markazlashgan issiqlik energiyasi bilan ta'minlash borasidagi ishlarni jadallashtirish yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

(Davomi 3-betda.)

"Barcha sa'y-harakatlarimiz, maqsad-muddaomiz xalqimizning bugungi hayotidan rozi, ertangi kunidan ko'ngli to'q bo'lishiga qaratilgan".

Maqsadimiz – Samarqandni jahon turizm markaziga aylantirish, aholi uchun zamonaviy turmush sharoiti yaratish

(Davomi. Boshi 2-betda.)

Davlatimiz rahbari Samarqand tumanidagi "Agromir" mas'uliyati cheklangan jamiyatida bo'lib, meva-sabzavotni qayta ishlash jarayonini ko'zdan kechirdi.

Yurtimizda yetishtirilgan sarxil meva-sabzavot, poliz mahsulotlari ta'mi, sifati va foydali elementlarga boyligi bilan ajralib turadi. Shuning uchun xorijda O'zbekistonda pishib yetilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlariga talab katta.

"Agromir" meva-sabzavotni qayta ishlash, ichki bozorni sharbat va shira, konsentratlar, pasta, pyure va konservalar bilan to'ldirib, eksport qilib kelinmoqda.

Qariyb 450 kishi doimiy ish bilan ta'minlangan korxona yiliga 60 ming tonna sharbat va nektar, 6 ming tonnaga yaqin konsentrat ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lib, hozir bu yerda jami 42 turdagi mahsulot tayyorlanmoqda.

2018-yilda korxonada umumiy qiymati 160 milliard so'mlik 53 ming tonna, joriy yilning birinchi yarmida 72 milliard so'mlik 24 ming tonna mahsulot ishlab chiqarildi. O'tgan yili 2,1 million dollar, joriy yilda 5,5 million dollarlik mahsulot eksport qilindi.

Ayni paytda korxonaga qarashli xo'jaliklarda meva-sabzavotning istiqbolli navlarini yetishtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Fermer va dehqon xo'jaliklari bilan buyurtma asosida ishlanadi.

Davlatimiz rahbari korxona sexlarida mevani qayta ishlash jarayonini, tayyor mahsulotlar namunalarini ko'zdan kechirdi.

Ishlab chiqarish va qadoqlash sexlariga Shveytsariya, Italiya va Germaniyaning sharbat, pyure va pasta ishlab chiqarish bo'yicha eng zamonaviy texnologiyalari

o'rnatilgan. Bu korxona mahsulotlarining O'zbekiston bozorida yetakchi o'rin egallashida qo'l kelmoqda.

Bugungi kunda "Agromir" mahsulotlari taniqli brendlar ostida Janubiy Koreya, Xitoy, Hindiston, Rossiya, Qozog'iston, Ozarboyjon, Tojikiston, Afg'oniston kabi mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Chet ellik iste'molchilarga sharbat holidayi tayyor mahsulotlardan tashqari konsentratlar ham yetkazib berilayapti.

Tanishuv chog'ida xaridorgir, jahon bozorida talab yuqori bo'lgan eksportbop mahsulotlarni ko'paytirish va savdo geografiasini kengaytirish zarurligi ta'kidlandi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Samarqand tumanida viloyat faollari, sektorlar rahbarlari, nuroniylar, fermer va tadbirkorlar ishtirokida yig'ilish o'tkazdi.

Sizlar bilan yil boshida uchrashib, viloyatda amalga oshiriladigan loyihalar, bunyodkorlik ishlari, umuman, xalqimiz hayotini, turmush darajasini oshirish yuzasidan ulkan vazifalarni belgilab olgan edik. O'tgan olti oy davomida bu vazifalar necho'li bajarilgani barchamizga yaxshi ma'lum. Ijoiy natijalar ham, yechimini kutayotgan masalalar ham salmoqli. Bugun Samarqandga kelib, yana sizlar bilan fikrlashib olish, belgilagan rejalarimizni o'z vaqtida hayotga tatbiq etishni shiddatli davrning o'zi taqozo etmoqda. Zamon shunchalik tez rivojlanayaptiki, yaqin va uzoq xorijiy davlatlar, hamkor mamlakatlar iqtisodiyotini tahlil etib, o'zimizning yo'limizni tanlamasak, globallashuv sharoitida jahonda o'z o'limizga ega bo'lmasak, oldimizga qo'ygan maqsadlarni amalga oshirish qiyin kechadi. Shu nuqtayi nazardan, Samarqandga bu galgi

safarimizdan asosiy maqsad viloyatda turizmni rivojlantirish, tadbirkorlik va qayta ishlashni kengaytirishni jadallashtirishga, yangi reja va vazifalarni belgilab olishga qaratilgan, dedi davlatimiz rahbari.

Shavkat Mirziyoyev viloyatda sanoat, qishloq xo'jaligi va boshqa tarmoqlarda muayyan natijalarga erishilayotgan bo'lsa-da, Samarqandning iqtisodiyotini mustahkamlash, aholi bandligini ta'minlash va turmush darajasini oshirishda turizm sohasi asosiy yo'nalish bo'lishi kerakligini ta'kidladi. Afsuski, hali bu boradagi imkoniyatlardan to'liq foydalanilmayapti. Shu bilan birga, bog'dorchilik, meva-sabzavot yetishtirishda ham erishilayotgan natijalar boshqa hududlar bilan solishtirganda oqsayotgani ko'rsatib o'tildi. Viloyatda aynan mana shu yo'nalishga ixtisoslashgan tumanlar bor. Bu joylarda endi faqat mahsulot yetishtirib, uni xomashyo holida sotishdan ko'ra, qayta ishlash, tayyor mahsulot eksport qiladigan korxonalarni ko'paytirish, zamonaviy mini-texnologiyalardan foydalanish zarurligiga e'tibor qaratildi. Shu maqsadda meva-sabzavot yetishtirishni rivojlantirishga 400 million dollar, turizm infratuzilmasini takomillashtirishga 100 million dollar ajratilishi ma'lum qilindi.

Davlatimiz rahbari tuman va shaharlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, aholi bandligini ta'minlash, tadbirkorlikka keng jalb etish borasidagi ishlarni jadallashtirish, «Urgut» erkin iqtisodiy zonasi salohiyatini kengaytirish borasida topshiriqlar berdi.

Tuman va shaharlar o'rtasida o'ziga xos raqobat muhitini yaratish masalalariga e'tibor qaratildi. Shu maqsadda tajriba tariqasida Kattaqo'rg'on tumani va

shahri hamda Urgut tumani o'zaro musobaqalashishini ta'kidladi. Bu Samarqand tajribasi sifatida keyinchalik mamlakat bo'yab ommalashtirilishi qayd etildi.

Tumanlarda amalga oshirilayotgan loyihalar, islohotlarning borishi yuzasidan sektor rahbarlarining hisobotlari tinglandi.

Davlatimiz rahbari Samarqand shahrida infratuzilmani takomillashtirish, sanoatni rivojlantirish, investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish borasidagi vazifalarga ham to'xtalib o'tdi. Jumladan, Samarqandni "turistik xab"ga aylantirish zarurligini ta'kidlab, Bosh vazir o'rinbosarlari va viloyat hokimiga shu masala yuzasidan ko'rsatmalar berdi.

Tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha 23-iyulda o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida belgilangan tizim asosida ishlab, muhitni o'zgartirish, tadbirkorlarga hamma sharoitni yaratib berish zarurligi qayd etildi.

Barcha sa'y-harakatlarimiz, maqsad-muddaomiz xalqimizning bugungi hayotidan rozi, ertangi kunidan ko'ngli to'q bo'lishiga qaratilgan. Buni har bir rahbar yurakdan his qilishi va zimmasidagi ulkan mas'uliyatni chuqur his etib, mehnat qilishi lozim. Shuni unutmaylikki, kechaga uslub, qotib qolgan qarashlar bilan oldimizga qo'ygan maqsadlarga erishib bo'lmaydi. Bugungi davr barchamizdan yangicha fikrlashni, zamon shiddatiga mos sur'atda ishlashni taqozo etayapti, dedi Shavkat Mirziyoyev.

Prezident hokimlar va sektorlar rahbarlariga har bir tuman iqtisodiyotini rivojlantirish bo'yicha topshiriqlar berdi.

Shu bilan davlatimiz rahbarining Samarqand viloyatiga tashrfi yakuniga yetdi.

O'ZA

981 mahallada maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etishga ehtiyoj bor

Oliy Majlis Senati Fan, ta'lim va sog'liqni saqlash masalalari qo'mitasining majlisida Maktabgacha ta'lim vazirligining 2019 yil birinchi yarm yilligida amalga oshirilishi belgilangan maqsadli vazifalarni bajarish yuzasidan hisoboti eshitildi.

Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, maktabgacha ta'lim muassasalarining davlat va nodavlat tarmog'ini kengaytirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, malakali pedagog kadrlar bilan ta'minlash, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalari bilan qamrab olishni keskin oshirish, ta'lim-tarbiya jarayonlariga zamonaviy ta'lim dasturlari va texnologiyalarini tatbiq etish orqali farzandlarimizni intellektual, ma'naviy-esetik, jismoniy rivojlantirish hamda ularni maktabga tayyorlash sifatini tubdan yaxshilash yo'nalishida muayyan ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, bugungi kunda vazirlik tizimidagi 9 ming 774

maktabgacha ta'lim muassasasida 1 million nafardan ziyod bolalarga 81 mingdan ortiq pedagog ta'lim va tarbiya berib kelmoqda. Ularning aksariyati yoki qariyb 70 foizi o'rta maxsus ma'lumotga ega bo'lgani uchun vazirlik tomonidan bolalar bog'chalarini bosqichma-bosqich oliy ma'lumotli kadrlar bilan ta'minlash ishlari olib borilmoqda.

Xususan, vazirlik taklifiga binoan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi "2019-2020-o'quv yilida O'zbekiston Respublikasining oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq ushbu maqsadlarga bakalavr bosqichining kunduzgi, kechki

va sirtqi ta'lim shakllariga jami 6 ming 400 tadan ziyod kvotalar ajratildi.

Sohada olib borilayotgan islohotlar natijasida nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari soni ham ortib bormoqda. Hozirgi kunda 3 ming 942 nodavlat maktabgacha ta'lim muassasasi mavjud bo'lib, ular faoliyatini yanada rag'batlantirish maqsadida bunday faoliyat turini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 29-apreldagi tegishli qarori bilan cheklanmagan muddatga beriladigan bo'ldi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta'minlash maqsadida tadbirkorlar tomonidan outsource asosida xizmat ko'rsatish tizimi joriy etildi. Jumladan, bugungi kunda 266 maktabgacha ta'lim muassasasida 60 tadbirkor tomonidan

63 ming 760 tarbiyalanuvchiga oziq-ovqat tayyorlash xizmati ko'rsatib kelinmoqda.

Qayd etilganidek, 2019-yilga mo'ljallangan Investitsiya dasturi doirasida 461 maktabgacha ta'lim muassasasida qurilish va rekonstruksiya qilish ishlari olib borilmoqda.

Majlisda sohaga doir dolzarb masalalar hamda vazirlik faoliyatini o'rganish chog'ida aniqlangan xato va kamchiliklar qizg'in muhokama qilindi.

Xususan, bugungi kunda 3 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan 1,5 milliondan ortiq bola yoki ularning 60 foizi maktabgacha ta'lim muassasalariga jalb etilmay qolmoqda. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari doirasida olib borilayotgan keng ko'lamli qurilish ishlari natijasida yangi qurilayotgan uylar atrofida maktabgacha ta'lim muassasalariga bo'lgan ehtiyoj oshib bormoqda. Ayni vaqtda

hududlarda 981 ta mahallada maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etishga ehtiyoj borligi majlisda alohida ta'kidlandi.

Joylardagi tuman maktabgacha ta'lim muassasalari moddiy-texnik bazasini mustahkamlash va ularda zamonaviy sharoitlarni ta'minlash yo'nalishida vazirlik tomonidan yo'l qo'yilgan kamchiliklar majlisda atroficha muhokama qilindi. Xususan, ko'pgina muassasalarda kompyuter vositalari bilan ta'minlash va ularni internet tarmog'iga ulash bilan bog'liq ishlar o'z nihoyasiga yetmagan. Ayniqsa, Andijon, Jizzax, Qashqadaryo, Namangan va Surxondaryo viloyatlarida mazkur topshiriq to'liq bajarilmagan.

Majlisda muhokama etilgan masalalar yuzasidan qo'mitaning tegishli qarori qabul qilindi.

Nurillo NASRIYEV,
O'ZA muxbiri

"Buxoro mavjlari" Turkiyada

Prezidentimizning o'tgan yili 27-iyunda qabul qilingan "O'zbekiston davlat filarmoniyasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori yurtdoshlarimiz madaniy hayotida katta voqelik bo'ldi.



Ayni paytda O'zbekiston davlat filarmoniyasi tasarrufidagi 18 ta badiiy jamoa hamda filarmoniyaning Qoraqalpog'iston Respublikasi va barcha viloyatlardagi hududiy bo'linmalarida yurtimizdagi eng iste'dodli ijodkorlar jamlangan. Ular san'atning dunyo tan olgan barcha turlarini mahorat bilan ijro etib, jahon bo'ylab o'tkazilgan xalqaro festivallarda milliy musiqa va raqs san'atimizni keng targ'ib qilmoqda.

Jumladan, shu yilning 8—22-iyul kunlari O'zbekiston davlat filarmoniyasi Buxoro viloyat bo'linmasi huzuridagi "Buxoro mavjlari" ashula va raqs ansam-

bli Turkiya bo'ylab turne-gastrol safarida bo'lib qaytdi. Ansambl a'zolari Bursa shahrida o'tkazilgan 33-xalqaro "Oltin qorako'z", Inegyul shahrida bo'lib o'tgan 32-xalqaro "Madaniyat va san'at", Yalova shahrida tashkil etilgan Xalqaro "Turkiy xalqlar madaniy aytishuvi" festivallarida munosib ishtirok etdi.

Festivallar doirasidagi madaniy tadbirlarda "Buxoro mavjlari" ashula va raqs ansamblining badiiy chiqishlarini tomoshabinlar zo'r qiziqish bilan kutib oldi. Ayniqsa, Farg'ona-Toshkent, Xorazm va Buxoro raqslari, doira zarblari barchani maftun etdi. Festivallar davomida Bursa, Inegyul va Yalova shahar gubernatorlari, davlat madaniyat va san'at muassasalari rahbariyati ishtirokida davra suhbatlari, uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Ansambl jamoasi o'zbek san'ati va madaniyatini yorqin namoyon etgani uchun diplom, esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi. Yalova shahrida o'tkazilgan festivalda gran-pri sohibi bo'ldi. Kelgusida jamoaning shu kabi boshqa xalqaro festivallarda ham ishtirok etishi bo'yicha chet ellik vakillar bilan o'zaro fikr almashildi. Ansambl faoliyati Turkiya ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlarida keng yoritildi.

Maftuna
PIRNAZAROVA,
O'zDJTU talabasi



Yangi MTM

Uchquduq tumanidagi "Yo'Ichilar" qo'rg'onida 180 o'rinni yangi MTM ish boshladi.

"Kelajak yulduzlari" nomli 11-bog'chada bolajonlarning sifati ta'lim-tarbiya olishi uchun barcha sharoit yaratilgan.

Kuni kecha yangi MTMning ochilish marosimi bo'lib o'tdi. Unda mahalla faollari, ota-onalar va tarbiyachilar ishtirok etdi. E'tiborlisi, jajji bolajonlarni bag'riga olgan bog'chada hududdagi 40 dan ziyod ayol ish bilan ta'minlandi.

Dildora NISHONOVA

Yoshlarimiz xalqaro iqtisodiyot olimpiadasida

Rossianing Sankt-Peterburg shahrida maktab o'quvchilari o'rtasida iqtisodiyot fani bo'yicha II xalqaro olimpiada boshlandi.

31-iyul kuni yakuniga yetadigan ushbu olimpiadada mamlakatimiz sharafiga Qoraqalpog'iston Respublikasining Nukus shahridagi 46-maktabning 10-sinf o'quvchisi Alibek Amitbekov, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek tumanidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi Javohir Yusupov, Namangan shahridagi 18-ixtisoslashtirilgan davlat maktab-internatining 10-sinf o'quvchisi Boburmirzo Valijonov, Surxondaryo viloyatining Denov tumanidagi 3-maktabning 10-sinf

o'quvchisi Zubaydullo Abdirahmonov, Farg'ona shahridagi 2-ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabining 10-sinf o'quvchisi Shamshir Zubaydullayev himoya qilmoqda.

Mazkur anjumanda Avstriya, Braziliya, Qozog'iston, Hindiston, Ispaniya, Yangi Zelandiya, Janubiy Koreya, AQSh, O'zbekiston singari 29 davlatdan 16—18 yosh toifasidagi maktab o'quvchilari (bir jamoada 5 nafar o'quvchidan ko'p bo'lmagan holda) o'zaro bahs olib boradi. Ta'kidlash

joizki, ushbu musobaqalar ishtirokchilarining aksariyati o'z mamlakatlarida iqtisodiyot va moliyaviy savodxonlik bo'yicha o'tkazilgan milliy tanlovlar g'oliblaridir.

Olimpiadada qatnashchilar uch bosqichda — moliyaviy savodxonlik, iqtisodiyot va biznes masalalari yechimi mavzularida bahs olib borishadi. Birinchi hamda ikkinchi bosqichda ishtirokchilar yakka tartibda baholanadi. Oxirgi bosqichda esa qatnashchilar jamoaviy tarzda qatnashadi.

N.USMONOVA,
O'zA muxbiri

O'qituvchi

nimani

o'ylaydi?



Kimdir majburiy mehnat yoki yig'implarni bekor qilishni talab qilmaguncha hamma jim yuraveradi. Aslida 1996-yildayoq Mehnat kodeksida majburiy mehnat taqiqlangan-ku, deydigan odam yo'q. Axir kodeks ham qonun emasmi?!

Asrorbek BOTIROV

Sharoit a'lo darajada. Dars soati yetarlicha, lekin hali ham bilimli va mahoratli erkak o'qituvchilar maktabga qaytmadi.

Dilnoza AHMEOVA

1-sinfga qabul qilinayotgan har bir bola tibbiy ko'rikdan o'tkaziladi. Maktabga qabul jarayonida tibbiy daftarini qarasangiz, hamma bolaga "sog'lom" deb tashxis qo'yilgan. Ko'p o'tmay bolalarda aqliy, nutqiy yoki jismoniy kamchilik borligi ma'lum bo'ladi. Shunday o'quvchi o'qituvchidan sinfdagi 10 nafar bolaga sarf etilgandan ortiq e'tibor talab qiladi. Shunday ekan, bolaning kasalligi, nuqsonini ochiq yozish maqsadga muvofiq. O'qituvchi o'zi dars o'tayotgan o'quvchilarning holatini bilishi juda ham muhim.

N.ABDIDOYIYEVA

Besh tashabbus bo'yicha to'garaklar faoliyati jonlandi. Turli tadbirlar o'tkazilmoqda. Maqsad — bolalarni o'z xohish-istagi asosida kasbga, foydali mashg'ulotlarga yo'naltirish. Bu jarayon tekshir-tekshirga aylanmasligi, ishlar xo'jako'rsinga qilinmasligi, hech bir bola to'garakka majburiy jalb etilmasligi kerak. Afsus, hamma joyda ham amalda bunday bo'lmayapti.

Sohiba BEKMURODOVA

So'nggi yillarda o'qituvchilarga ko'plab yengilliklar bo'ldi. Masalan, paxta terimi, ko'cha supurish, tashkilotlarga "beminnat" yordam berish kabi ishlardan qutuldik. Faqat bir holat uch-to'rt yil avval qanday bo'lsa, bugun ham shunday davom etmoqda. Ta'til vaqtidagi tezkor, to'xtovsiz topshiriqlar. Cheksiz xabarnomalar ushbu so'zlar bilan boshlanadi: "Falonchiyev kelyapti", "Tekshirish", "Mehmonlar", "Komissiya", "5 tashabbus bo'yicha o'quvchilar sonini yozib jadvalni to'ldiring" va hokazo. Ta'til "U keldi, bu keldi", degan vahima bilan o'tyapti.

Gulchehra ASHUROVA

Ona tili va adabiyotga ixtisoslashtirilgan maktab-internatning 3 nafar o'quvchisi 4 million so'mdan moddiy rag'batlantirildi.

Kecha va bugun

“Yillar davomida yig'ilib qolgan muammolar bor”

Keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim islohotlari yangi bosqichga ko'tarildi. Yig'ilib qolgan muammolarga asta-sekin yechim topilmoqda. Jumladan, Jizzax viloyati xalq ta'limi tizimida ham ta'limga zamonaviy yondashuvlar joriy etilmoqda. Ayniqsa, boshqarma rahbarligiga tajribali pedagog, tadbirkorlik va menejerlik qobiliyatiga ega Dilfuza Sadriddinova kelgach, islohotlar jadallik bilan amalga oshirilib, muammolar bartaraf etilmoqda. Boshqarma boshlig'i bilan suhbatimiz mavjud muammolar, ularning yechimi va kelgusi rejalar haqida bo'ldi.

— **Tahlil, kuzatuv va o'rganishlardan kelib chiqib, islohotlar samaradorligini oshirish, Jizzax viloyatining ta'lim imini ko'tarish borasida qanday ishlar qilish kerak deb o'ylaysiz? Shaxsiy taqdimotlaringizda nimalar ko'zda tutilgan?**

— Avvalo, xalq ta'limi tizimidagi har bir muassasa zamon talabi darajasida moddiy-texnik bazaga ega bo'lishi kerak. Bu ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning asosiy omilidir. Viloyatda yillar davomida yig'ilib qolgan muammolar bor. Birinchi galda shu muammolar sababini o'rganib, ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ko'ryapmiz. Fuqarolardan ko'plab ariza va shikoyatlar tushayotgani ham sohaga jiddiy e'tibor qaratishni talab etmoqda. Shu yilning o'tgan 6 oyi davomida boshqarmamizga 445 ta murojaat kelib tushgan, aksariyati maktab rahbarlarining nojo'ya xatti-harakati va boshqa mavzularga taalluqlidir. Xalq bilan muloqot tizimini takomillashtirish “Telegram” ijtimoiy tarmog'ida boshqarmaning Jizzax—ta'lim, adolat va ishonch veb-sahifasi ochildi. Unga fuqarolar o'z tak-

lif, e'tiroz va mulohazasini yo'llashi mumkin. Ushbu kanal muammolarni tezkor bartaraf etishga xizmat qiladi.

Shuningdek, boshqarma qoshida “PROGRESS” rivojlantirish laboratoriya markazi tashkil etildi. U 20 dona zamonaviy kompyuter texnikasi bilan ta'minlandi. Ushbu muassasa onlayn kuzatuv va masofaviy o'qitishga mo'ljallangan bo'lib, viloyat xalq ta'limi tizimidagi rahbar va xodimlarning faoliyatini prognozlashtirish, metodik ehtiyojni aniqlash orqali malakasini oshirish, amaliy o'quv mashg'ulotlari tashkil etish hamda zaxira kadrlar bankini yaratishga xizmat qiladi. Ushbu laboratoriyada rahbarlardan jadval asosida test olinib, aniqlangan bo'shliqlar to'ldiriladi. Jumladan, maktab boshqaruvi, rahbar psixologiyasi, moliyaviy masalalar, AKT va ingliz tilidan qisqa o'quv tashkil etilmoqda. Bu mashg'ulotlarga tajribali mutaxassis va faxriy pedagog Saidahmad Mirzabekov rahbarlik qilmoqda. Laboratoriya qoshida ko'chma o'quv mashg'ulotlari tashkil etilib, maxsus avtomashinada chekka qishloqlar-

dagi ta'lim muassasalariga ham metodik va amaliy yordam berilmoqda.

Viloyatimizdagi 542 ta maktab deyarli bir xil sharoitda ish olib borsada, reytingi har xil. Shu bois maktablar natijasiga ko'ra 3 toifaga ajratildi. Yuqori rivojlangan, o'rta rivojlangan va past rentabelli maktablar aniqlab olindi. “Ustoz — shogird” tamoyili asosida yuqori ko'rsatkichga erishayotgan maktablar past natijali maktablarga birlashtirib qo'yildi.

— **Davlatimiz rahbarining 2019-yil 29-apreldagi “O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”ni tasdiqlash to'g'risida”gi farmonida tizimni rivojlantirishning ustuvor vazifalari belgilab berilgan. Uni amalga oshirish borasida olib borilayotgan ishlarga to'xtalsangiz.**

— Bu muhim hujjatda xalq ta'limi tizimini rivojlantirishning asosiy 9 ta yo'nalishi, 48 ta maqsadi belgilab berilgan. Unga muvofiq, sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hamda innovatsion loyihalarni joriy qilish, yoshlar bandligini ta'minlashda maktabdan tashqari ta'limning zamonaviy usullari va yo'nalishlarini tatbiq qilish vazifalari ko'rsatib o'tilgan. Shunga binoan o'quvchilarning bilim darajasi va ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro dasturlar va izlanishlar(PISA, TIMSS, PIRLS hamda boshqalar)da viloyatimiz ishtirokini ta'minlashga intilyapmiz. Konsepsiyani bosqichma-bosqich amalga oshirish borasida aniq vazifalar belgilanib, yo'l xaritasi ishlab chiqqanmiz.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ta'limning asosini tashkil etadi.

Zamonaviy ta'limni innovatsiyasiz tasavvur etish qiyin. Shunday ekan, har bir pedagog o'z ustida tinmay ishlashi, kasbiy malakasini oshirib, ijodkorlik qobiliyatini namoyish etishi zarur. Shundagina pedagoglar o'quvchilar kutgandek mashg'ulotlarni qiziqarli olib boradi.

— **Mahalliy hokimliklar tomonidan xalq ta'limi sohasini qo'llab-quvvatlash bo'yicha qanday amaliy yordam berilmoqda?**

— Xalq ta'limi tizimini rivojlantirish borasida Jizzax viloyat hokimi Ergash Saliyev yaqindan yordam bermoqda. Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 22-fevraldagi “Umumiy o'rta ta'lim muassasalari va akademik litseylar bitiruvchilarini rag'batlantirishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi hamda 5 ta muhim tashabbus ijrosini ta'minlash maqsadida 2018-2019-o'quv yili maktabni oltin va kumush medal bilan tamomlagan o'quvchilar rag'batlantirildi. Oltin medal olgan 82 nafar o'quvchining har biri 500 ming so'mdan, kumush medal olgan 82 nafar o'quvchining har biri 400 ming so'mdan, respublika fan olimpiadasida g'olib bo'lgan 1 nafar o'quvchi 5 000 000 so'm pul mukofoti bilan taqdirlandi. Shuningdek, Hamid Olimjon va Zulfiya nomidagi ona tili va adabiyotga ixtisoslashtirilgan maktab-internatning 3 nafar o'quvchisi 4 million so'mdan moddiy rag'batlantirildi.

Zamonaviy ta'limni rivojlantirishda xalqaro hamkorlikning o'rni katta. Bunda rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish va o'zlashtirish foydadan xoli emas. Shu maqsadda dastlabki qadam qo'yildi. Shahardagi 22-IDUM Germaniyaning Frankfurt shahridagi maktablar bilan to'g'ridan to'g'ri aloqa o'matdi. Germaniyalik mutaxassislar mahorat darsi o'tib berdi. Kelgusida viloyatimiz o'qituvchilari ham Germaniya va boshqa davlatlarda malaka oshiradi.

Abdusattor SODIQOV
suhbatlashdi.

Maktablar hayotidan

Yuz bilan yuzlashgan maktab

Bulung'ur tumanidagi Bedana qishlog'ida joylashgan 5-maktab viloyatda nufuzli ta'lim muassasalaridan hisoblanadi. Maktab faoliyat boshlaganiga bu yil 100 yil to'ldi.

Muassasada 1063 nafar o'g'il-qizga 92 nafar malakali pedagog ta'lim-tarbiya berib kelmoqda. 29 ta to'garakda o'quvchilar fanlar, kasbiy-ijodiy, musiqa san'ati sirlarini egallamoqda.

1919-yilning sentabr oyida asos solingan maktabga dastlab Sadriddin Ayniy domlining shogirdi, 18 yoshli Usmon To'rayev (1901—1985) direktor etib tayinlangan. Bu yerda katta yoshdagi qishloq ahli uchun ham savod chiqarish kurslari ochildi. Usmon To'rayev bilan birga birinchi o'qituvchi sifatida Yahyo Hamdamov ishlagan. Yosh direktor o'zi bilan maktabga 5 ta parta va boshqa o'quv jihozlari olib kelgan. O'quvchilar avvaliga saxovatli inson Hamdam boboning mehmonxonasida, keyinchalik qishloq masjidida bilim olgan.

Keyinchalik maktabga Y.Hamdamov, R.Meliqulov, I.Umarov, N.Jo'rayev, H.Eshmurodov, M.Kikinadze, S.Umatov, A.Usmonov, A.Rahmatov, M.Karimov, T.Mustayev, A.Xoljigitov, N.Niyozov, X.Mahmudov, A.Mamarajabov, T.Ilchiyev, I.Musayev, J.Allashukurov, X.Begmatova kabi fidoyi pedagoglar rahbarlik qilgan.

Maktabning bir asrlik yubileyi katta bayram sifatida nishonlandi. Unda 85 yoshli tarix o'qituvchisi To'xta muallim Bedana qishlog'i tarixi haqida so'zlab berdi.

— Bolaligimiz urush yillariga to'g'ri kelgan, barchaning e'tibori frontga qaratilgan edi, — deydi u. — O'qituvchilar ham front orti ishlarga jalb etilgan. Biz tengi bolalar ham o'qib, ham kolxozda ishlardik. Urush tugagach, 1946-yili mo'l hosil yetishtirildi. Bulung'urda elektr stansiyasi qurildi, qishloq va maktab elektr bilan ta'minlandi. Bular maktab tarixida katta o'zgarish yasadi.

E'tiborlisi, ta'lim dargohidan S.Jumanov, A.Mamatov, M.Isroilov, S.Fayzullayev, R.Isroilov, I.Xo'janov, S.Ismoilov, A.Mamatov, N.Yakubov, A.Sayfullayev kabi professorlar, fan doktorlari, fan nomzodlari, deputatlar, vrachlar, o'qituvchilar, jurnalistlar, shuningdek, T.To'rayev, Q.Jumanov, B.Tovboyev, E.Shomurodov, K.Nomozov, S.Usmonov, A.Jumanov, O'.Jo'raboyev va Sh.G'afforov singari yetuk mutaxassislar yetishib chiqdi.

— Maktabni bitirganimga 57 yil bo'ldi, — deydi Samarqand davlat chet tillar instituti professori Salohiddin Ismoilov. — Bu davr orasida professor darajasiga erishdim. Shubhasiz, maktabda olgan bilimim muvaffaqiyatimga asos bo'lgan. Shuning uchun ustozlarimni aslo unutmayman. Hozir ham ko'z oldimda, 1964-yilning sentabr oyi edi. 10-sinfda o'qiyotganimizda ilk bor fransuz tili darsi bo'ldi. O'qituvchining yoqimli ovozi, dars o'tish uslubi, kiyinishi, muomala madaniyati — ularning barchasi o'zgacha edi. U

kishi maqtovga, olqishga, e'tirofga loyiq shaxs sifatida bizga ibrat edi. Demochi bo'lganim, maktabimizda ana shunday umrini, butun qalb qo'rini ta'limga baxshida etib, barkamol avlodni tarbiyalash yo'lida o'ziga xos maktab yaratgan insonlar ko'p. Ularni har qancha e'zlasak oz.


Tadbirda so'zga chiqqanlar bolalik xotiralarini yodga olishdi. Jumladan, 1986-yili milliy qadriyatlarimizni tiklash maqsadida Tursunpo'lat Ilchiyev va Suvon Abduqodirov boshchiligidagi folklor jamoasi tuzildi. Unga iste'dodli o'quvchilar, o'qituvchilar, nuroniylar otaxon-u onaxonlar jalb etilib, xalqimizning qadim xalq og'zaki ijodiy namunalari o'rganildi, ommaga keng targ'ib qilindi. Mazkur jamoa 1987-yili Moskvada o'tkazilgan O'zbekiston san'ati va madaniyati kunlarida ishtirok etib, “Xalq folklor jamoasi” unvoniga sazovor bo'ldi. Hozirgi kunda bu jamoa “Chavqi” folklor-etnografik xalq ansambli sifatida respublikamizda o'tkazilayotgan bayramlar, ommaviy sayil, xalqaro musiqa festivallarida faol ishtirok etib kelmoqda. “Chavqi”ning vorisi sifatida maktabda “Chavqi nihollari” bolalar folklor jamoasi ham faoliyat ko'rsatmoqda.

Bugungi kunda maktabda sportga ham katta e'tibor berilmoqda. Qo'l to'pi bo'yicha qizlar jamoasi muntazam ravishda “Umid nihollari”, “Barkamol avlod”, Universiada o'yinlarida ishtirok etmoqda. Bu sportchi qizlar Rossiya, Qozog'iston, Malayziya, Singapur, Indoneziya va Yaponiyada o'tkazilgan xalqaro musobaqalarda ham sovrinli o'rinni egallagan.

— Shu yilning may oyida Mo'g'uliston poytaxti Ulan-Batorda o'tkazilgan xalqaro tumirda “TROPHY” kubogi va oltin medalni qo'lga kiritgan maktab yubileyiga munosib tuhfa bo'ldi, — deydi maktab direktori Sanobar Jo'raboyeva.

Maktabda bo'lib o'tgan tadbirda Bulung'ur tuman hokimi Bahodir Bahromov qatnashib, o'quvchilarga kompyuter jamlanmasi tuhfa qilgan bo'lsa, sobiq o'quvchi Bekzod Ilchiyev maktab axborot-resurs markaziga badiiy adabiyotlar sovg'a qildi.

Safar ABDUVOHIDOV,
SamDU dotsenti
Xolboy QOSIMOV,
jurnalist



6 yoshli bola maktabga tayyormi?

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Yetti yosh — yetuklik yoshi

Munira QAHHOROVA, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi bo'lim boshlig'i:

Fikrimizcha, bolani 7 yoshga kirganda maktabga berish lozim.

Bugun to'liq 7 yoshga to'lmagan bolalarni maktabga berishga to'siq yo'q, faqat bu — ularning jismonan, ruhan rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shunday bo'lsa-da, ayrim ota-onalar farzandini 6 yosh, hatto 5 yoshdan ham

dastlabki 2—4 haftasi juda qiyin kechadi. Bu paytda hayoti tubdan o'zgaradi: kun tartibi, kishilar bilan o'zaro munosabati, yangi talab va vazifalar paydo bo'ladi. Bu yuklamalarni 5-6 yoshli bolalar o'zlashtirishga qiynaladi, darsda tez toliqadi, immuniteti tushib, sog'lig'iga ham putur yetadi. Ular bog'cha davriga qaytgisi, o'yinab-kulgisi keladi. 30—40 daqiqa bir joyda o'tirib bilim olishdan tez zerikadi. Uyg'a vazifalarni ham ishtiyoq bilan bajarmaydi. Chunki u hali bu jarayonga ma'nan, jismonan, ruhan tayyor bo'lmaydi.

7 yoshli bolada ixtiyoriy diqqat, xotira va idrok, tafakkur, nutq, his-tuyg'u, iro-

dashg'ulotlar bilan shug'ullanishga yo'naltirish kerak. Masalan, shaxmat, shashka, til o'rganish, mental arifmetika yoki sport to'garagiga jalb qilish lozim.

Bo'lg'usi o'quvchi maktabga tayyormi?

Shirin MAHMUDOVA, shifokor-pediatr:

— Maktabning o'ziga yarasha tartib-qoidasi, talabi mavjud. 6-7 yoshli bolalar bu talablarga bir xil amal qiladi. O'quv faoliyatini yaxshi o'zlashtirish, aqliy ishchanlik, tengdoshlari bilan muloqotga kirishuvchanlik, maktab tartib-qoidalariga amal qilishga tayyor bo'lishi kerak. Shuningdek, bo'lg'usi o'quvchining diqqati, ko'rish qobiliyati, mantiqiy tafakkuri, kichik qo'l motorikasi, xotirasi, matematik va fazoviy tasavvuri, og'zaki nutqi, ilk o'quv motivlari shakllangan bo'lishi shart! Shaki, element, yozuvlarni xuddi o'ziday qilib ko'chira bilishi, o'qib berilgan 10—12 ta so'zni esda saqlab, takrorlashi, rasm asosida mantiqli hikoya tuza olishi, predmetlarning ko'p yo ozligi, sonlarning katta-kichikligi, predmetlarni guruhlashtirish, umumlashtirish, taqqoslash hamda qismlardan butun yasashni bilishi lozim. Bu yuklamalarni 7 yoshga to'lgan bola bemaol uddalaydi. Ammo 6 yoshli bola...

Agar bola berilgan rasm asosida mantiqli hikoya tuza olmasa, o'qib berilgan so'zlarni esda saqlab qololmasa, bu bolaning maktabga chiqqan payti o'qish va yozishni yaxshi o'zlashtirilmagligi, aqliy ishchanligining pasayishiga olib keladi. O'qituvchi bergan topshiriqlarni bajarishda qiynalib tez charchab qoladi. Buning natijasida bolada kayfiyatsizlik, uyqusizlik, ishtahaning yo'qolishi kuzatiladi. Bular vaqtida barta'raf etilmasa, jismoniy rivojlanishdagi kamchiliklar, bo'y o'sishining orqada qolishi, ishtahasizligi sabab kamqon, immuniteti past, kasallikka tez chalinuvchan bo'lib qoladi.

Bola sog'lig'ining yomonlashuvi mashg'ulotlarda qatnasholmaslikka, darslarni o'z vaqtida o'zlashtirilmaglikka olib keladi. Hatto ba'zi bolalarning maktabga moslasholmagan holatlari ham yuz beradi. Keyingi yili u bola yana 1-sinf-ga tengdoshlari qatori maktabga katta qiziqish bilan kelmasligi ham mumkin.

Bola ruhan qiynaladi

Dilorom SA'DULLAYEVA, psixolog:

— Maktabgacha yoshdagi bolaning 1-sinf o'quvchisi bo'lishi — 7 yoshli bola va ota-ona hayotidagi katta voqea. Keyingi yillar davomidagi o'zlashtirish va ilm olishga intilish aynan birinchi o'quv yiliga bog'liq. Bu nafaqat o'qituvchi, balki ota-onaga ham katta mas'uliyat yuklaydi. Shuning uchun psixologlar bolani maktabga berishdan oldin ota-onasi bilan ishlash kerak, deydishadi.

1-sinf bola hayotining eng muhim davri. Ilk o'quv kuni o'quvchilarning

ko'pida stress holati yuzaga keladi. Bu ruhiy kechinmalarni yengish kuchli iroda(o'ziga bo'lgan ishonch, qat'iyat) ni talab qiladi. Agar 5-6 yoshda bo'lsa, bu bola ruhiyati va sog'lig'iga salbiy ta'sir qiladi. Natijada hali o'yinqaroq bola darsda diqqatini jamlolmay, injiq, asabiy bo'lib qoladi. Bu uning kayfiyatiga, bilim olishiga ta'sir ko'rsatadi.

Asab tizimi tez charchaydi va toliqadi, o'qituvchi topshiriqlarini tez bajara olmaydi. Sinfidoshlaridan doim ortda qolib yuradi. Yozuv, o'qish, matematika, guruhviy topshiriqlarni bajarishda jiddiy qiynchiliklar kelib chiqib, idroki yetarli darajada rivojlanmagani sabab qiynaladi. Darsdagi qoloqligi tufayli sinfdoshlari bilan tez chiqishib keta olmaydi, tafakkuri yetarli darajada rivojlanmagani sababli nutqning ayrim buzilish holatlari ham kuzatilishi mumkin.

Darslarni o'zlashtirishda sinfdoshlaridan ortda qolayotgani ham unga ruhiy zarba bo'ladi. Bora-bora darslarni o'zlashtirishi, maktabga ko'nikishi mumkin, ammo o'quv yilining boshidagi ruhiy holat miyasida saqlanib qoladi, o'zgina dilxirallikdan depressiyaga tushadigan bo'lib qoladi.

Majburlab o'qitish yaxshi emas

Zamira YUSUPOVA, psixonevrolog:

— Farzandining 6 yoshdan o'quvchi bo'lishini istagan ota-ona bolasining o'qishga bo'lgan rag'batini, qiziqishini, ishtiyoqi va qobiliyatini oldindan kuzatib, tarbiyalab borishi kerak.

O'qituvchilar esa maktabga 6 yoshli bolalarni sinchkovlik bilan imtihon qilib olishi lozim. Chunki jismonan baquvvat, o'qish-yozishni allaqachon o'rganib olgani bilan ko'pchilikning yangi muhitga, maktabga ko'nikishi juda qiyin kechadi.

Ixtiyoriy diqqat va o'qish uchun zarur bo'lgan miyada kechadigan ko'plab jarayonlar, asosan, 7-8 yoshda, aqliy jihatdan o'zib ketgan ba'zi bolalarda olti yoshda ham shakllanadi. Tibbiy va psixologik ko'rikda ana shunday iqtidorli bolalarni saralab olish kerak. Buning uchun bola og'zaki savollarga javob berishi va ko'rgazmali topshiriqlarni bajarishi lozim. Savol va topshiriqlar ularning yoshi, dunyoqarashiga mos holda tanlanadi.

Agar bolangizning o'qishga ishtiyoqini bilmoqchi bo'lsangiz, unga "Borzorda ikkita sumka bo'lsa, biri o'yinchoqlar, ikkinchisi kitob-daftarlar bilan to'ldirilgan bo'lsa, qaysi birini tanlading?" degan savolni berib ko'ring. Hech ikkilanmasdan "O'yinchoq to'la sumkani olardim" desa, bola hali maktabga tayyor bo'lmaydi.

Aziz ota-onalar, agar farzandingiz endi 6 yoshga qadam qo'yg'an-u, siz uni maktabga yuborish niyatida bo'lsangiz, yaxshilab o'ylab ko'ring. O'z orzu-havasingizni deb, jigarbandingiz ruhiyatiga zarba berib qo'yman.

Kamola AHMEDOVA
tayyorladi.



maktabga berishga oshiqadi. Go'yoki 7 yoshda bersa, nimadandir kechikib qoladigandek. Vaholanki, bu yoshda bola hali bolalik davridan voz kechmagan bo'ladi. Ta'lim jarayoniga ko'nika olmaydi, dars yuklamalari unga og'irlik qiladi. Bunday holat ko'p uchraydi. Balki bunga sabab ota-onaning farzandidagi noyob qobiliyatni ko'rsatish istagidir. Unutmang, boladagi qobiliyat hech qachon yo'qolmaydi, balki uni tezroq ko'rsatish, shakllantirish istagi, me'yorida ortiq yuklamalar qobiliyatli bolaning ham ruhiyatini sindirib qo'yishi mumkin!

Bolaligidan mahrum qilmang!

Habiba ALIMOVA, Yangiyo'l tumaniidagi 3-maktab o'qituvchisi:

— Maktab — muqaddas dargoh. 1-sinfda o'qimoqchi bo'lgan bolada o'ziga ishonch, qat'iyat shakllangan bo'lishi kerak. Kattalar bilan muloqotga oson kirishishi, biror ishini mustaqil yondashuv asosida bajara olishi, zimmasidagi mas'uliyatni his qilishi uning maktab hayotiga tayyor ekanidan dalolat beradi.

Barchamizga ma'lumki, 5-6 yosh tugul 7 yoshli maktabga yaxshi tayyorlangan hamda fiziologik va ruhiy jihatdan ulg'aygan bolada ham sentabr oyining

da kabi xususiyatlar rivojlangan bo'ladi. Shu bois 7 yoshli bola 6 yoshli bolaga qaraganda bilim olish va o'rganishga intiluvchan bo'ladi. Shuningdek, 7 yoshli bola atrofdagi berayotgan voqea-hodisalarni teran anglaydi.

Bundan tashqari, ayrim ota-onalar rus tilini yaxshi o'zlashtirib borsin degan niyatda bolasini ta'lim rus tilida olib boriladigan sinflarga beryapti. Ammo ular farzandi bunga tayyormi yoki yo'qligi xususida o'ylab ko'rmayapti. Ustiga-ustak, ota-onalarning o'zi ham rus tilida so'zlasholmaydi. Bunday o'quvchilar darsda berilgan ma'lumotlarni o'zlashtirishga qiynaladi.


Bunday yuklamalar hali ta'lim olishga tayyor bo'lmagan bolani kundan kun toliqtiradi. Charchoqdan bola asabiy, qo'rs va gapuqmas bo'lib qoladi. Unda maktabga borish, dars qilishga qiziqish kamayib boradi.

Bola hali o'yinqaroq, bilim olishga, maktabga borishga qiziqishi bo'lmasa, bu holda uni majburlab o'qishga berish kerak emas. Aks holda, ota-ona ham, bola ham qiynaladi.

Agar bolaning maktabga qiziqishi uйда yoki bog'chada o'tirishdan zerikishdan yoki chiroyli maktab kiyimlari-yu, o'quv qurollariga ega bo'lishdan iborat bo'lsa, yaxshisi, bunday bolani barvaqt 1-sinfga bermay, boshqa

AES mutaxassislari O'zbekistonda tayyorlanadi

Iqtisodiyotning tez sur'atlar bilan rivojlanishini ta'minlash, aholining elektr energiyasiga kun sayin ortib borayotgan ehtiyojini qondirish, kelgusida arzon va ekologik toza elektr energiyasini hosil qilishning istiqbolli sohalarini belgilab olishni davming o'zi talab qilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 8-noyabrdagi "Energiya resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni va 2018-yil 19-iyuldagi "O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori orqali O'zbekistonda atom elektrostansiyasini (AES) qurish va yaqin kelajakda mamlakatni elektr energiyasi bilan to'liq ta'minlash chora-tadbirlari belgilab berildi.



Mazkur hujjatlarda atom energetikasi sohasidagi loyihalarni amalga oshirish uchun ko'plab xorijiy investitsiyalarni jalb etish, sohaga ilg'or texnologiyalarni tatbiq etish, atom energetikasi sohasidagi tadqiqotlarni, jumladan, yadro texnologiyalari, radiatsion ekologiya bo'yicha izlanishlarni kuchaytirish, yadro texnologiyasi va yadro energetikasi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash asosiy vazifa qilib belgilandi.

Bugun respublikamizda elektr energiyasiga bo'lgan ehtiyoj 70 mlrd kVt/soat. Ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasi miqdori esa 55 mlrd kVt/soat. Bu esa mamlakat ehtiyojining taqriban 80 foizini tashkil qiladi yoki aholi jon boshiga 1650 kVt/soat elektr energiyasi ishlab chiqarilayotgan degani. O'zbekistonda yadro energetikasidan foydalanishning qator istiqbolli jihatlari ham mavjud. Masalan, atom energetikasidan foydalanilsa, million tonnalab ko'mir va neft mahsulotlari tejali, atrof-muhitning ifloslanishiga barham beriladi. Mamlakatdagi yuzlab ishlab chiqarish korxonalari va sanoat markazlarini yetilcha ekologik toza va bir necha barobar arzon elektr energiyasi bilan ta'minlashga erishiladi. AESlar uchun sarflangan xarajalar eng uzog'i bilan 8-9 yilda to'liq o'zini qoplaydi va keyingi yillarda AES mamlakat iqtisodiyotini yuksaltirish uchun xizmat qiladi. Eng asosiysi, yadro yoqilg'isi xomashyosi — uranning respublikamizda yetarlicha zaxirasi mavjud. Atom elektrostansiyasini muvaffaqiyatli ekspluatatsiya qilish, texnik jarayonlarni boshqarish, xavfsizlikni ta'minlash hamda nazorat qilish eng asosiy masala hisoblanadi.

Bugungi kunda yadro energetikasi bo'lgan ehtiyoj tez sur'atlar bilan ortib bormoqda. Dunyoda hozir 435 blokli 192 ta AES ishlab turgan bo'lsa, mamlotlarga qaraganda, o'nlab mamlakatlarda yana 30 dan ortiq reaktorlar qurilmoqda. Insoniyatning energiya zaxiralarga bo'lgan ehtiyoji hozirgidek davom etsa, 2030-yillarga borib, 900 dan ortiq energiya blokli atom elektrostansiyalaridan foydalanish zarurati tug'ildi. 2050-yillarga borib esa insoniyatning energiyaga bo'lgan ehtiyojini ham, zarur bo'lgan AESlar sonini ham tasavvur qilish qiyin emas. Bu AESlarni ekspluatatsiya qilish, xavfsizligini ta'minlash uchun yuzminglab yuqori malakali mutaxassislarni talab qilinadi degan gap.

Respublikamizda qurilayotgan 2 blokli AESda ishlash uchun kamida 4,5-5 ming nafar yuqori malakali mutaxassis taklif etiladi. Bunday malakali mutaxassislarni tayyorlash asosiy dolzarb muammo bo'lib turibdi. To'g'ri, Moskva fizika instituti, Moskva davlat universiteti, Moskva fizika-texnika instituti kabi Rosatom tizimidagi yadroviy texnologiyalar va yadroviy energetika sohasida yetakchi bo'lgan markazlarda ham kadrlar tayyorlash imkoniyatlari katta va ular tayyorlanmoqda. Ammo bu bilan masalani to'liq hal qilib bo'lmaydi. Shu sababli respublikamizdagi O'zFA Yadro fizikasi instituti va kadrlar tayyorlash salohiyati yuqori bo'lgan universitetlarda atom energetikasi sohasida yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash maqsadga muvofiq.

Prezidentimiz O'zbekistonda AES qurish rejasi haqida to'xtalib "Ma'lumki atom elektr stansiyasini qurish va

undan foydalanishda eng zamonaviy va murakkab texnologiyalar qo'llaniladi. Buning uchun esa yuqori saviyali va chuqur bilimga ega bo'lgan mutaxassislarni kerak", deb ta'kidlagan edi. Atom energetikasi bo'yicha yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashda, birinchi navbatda, nafaqat respublikamizda, balki dunyoda yadro fizikasi sohasida ilm-fan markazlaridan biri bo'lgan Yadro fizikasi instituti, O'zbekiston Milliy universiteti va Samarqand davlat universiteti bu borada yetarlicha ilmiy-texnikaviy imkoniyatlarga ega.

Samarqand davlat universiteti "Yadro fizikasi" kafedrasida va kafedra qoshidagi Yadro fizikasi laboratoriyasida eng zamonaviy o'quv va ilmiy uskunalarni qurilmalar, sintillyatsion detektorlar ishlab turibdi. Kafedraning iqtidorli talabalari, doktorant va professor-o'qituvchilari O'zbekistonning turli hududlaridan olingan tabiat namunalari tarkibidagi radiatsion aktivlik darajasini yuqori aniqlikda o'lchashga erishmoqda. Xuddi shunday tajribalar respublikamiz hududidagi ichimlik suvi va o'simliklarda ham o'tkazilmoqda.

O'tkazilayotgan eksperiment natijalari asosida respublikamizda radiatsion holat bo'yicha monitoring ishlari olib borilmoqda. Asosiy maqsad kelgusida mamlakatimizning barcha hududini (jumladan, daryo va ko'llarni ham) qamrab olgan holda radiatsion aktivlik xaritasini tuzishdan iborat. Shu maqsadda kafedrada faoliyat ko'rsatayotgan tayanch doktorantlar, ikkita mutaxassislik (fizikaviy ekologiya, atom yadrosi va elementar zarralar fizikasi, tezlashtiruvchi texnika) bo'yicha tahsil olayotgan magistrantlarning dissertatsiya mavzulari ham atmosferadagi radionuklidlar tushuvi, qurilish materiallarida radiatsion xavfsizlikni baholash, havodagi radioaktiv nuklidlarning hajmiy va solishtirma faolligini o'rganish kabi dolzarb masalalarga bag'ishlandi. Bitiruvchi magistrantlar va yosh xodimlar Belorussiya Fanlar akademiyasi Yadro texnologiyalari instituti, Moskva fizika instituti Yadro fizikasi laboratoriyasi, Sankt-Peterburg muhandislik texnika instituti va Xitoy Xalq Respublikasining nufuzli universitetlariga aspirantura va ilmiy stajirovkalarga yuborildi. Iqtidorli yosh mutaxassislarni Birlashgan yadro tadqiqotlari instituti (BYTI)da MAGATE tashkilotining granti hisobidan "Yadro texnologiyalari bo'yicha ilmiy stajirovkani o'tab keldilar va BYTI bilan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash borasida hamkorlik qilinmoqda. Shuningdek, fakultetning eng iqtidorli talabalari ichidan yadro fizikasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarga layoqati bo'lgan talabalar saralanib, ularni kelgusida atom yadrosi va elementar zarralar fizikasi, yadro texnologiyalari va yadro energetikasi, yadroviy qurilmalar, radiatsion ekologiya sohalarida malakali mutaxassislarni etib tarbiyalash rejalashtirilgan.

Samarqand davlat universitetida atom energetikasi sohasida malakali mutaxassislarni tayyorlash borasida ishlar reja asosida olib borilmoqda. Birinchi navbatda, fizika bakalavriat ta'lim yo'nalishining o'quv rejasiga fizikaviy ekologiya (radiatsion ekologiya), yadro texnologiyalari va yadro energetikasi fanlari kiritildi. Bu fanlardan ma'ruza, laboratoriya mashg'ulotlari o'tkazilishi rejalashtirildi. Fizikaviy ekologiya fanining dasturiga tabiiy va antropogen radiatsion fonning shakllanishi, radioaktiv nuklidlarning turli obyektlarda tarqalishi, atrof-muhitning radioaktiv ifloslanishi, atom energetikasining radioaktiv chiqindilari, yadro reaktorlari, yadroviy nurlanishlarning hosil bo'lishi va ulardan himoyalash kabi dolzarb mavzularda talabalarga ma'ruzalar o'qilmoqda. Hozir yadro texnologiyalari va yadro energetikasi fani o'quv dasturlari bilan ta'minlandi. Bu fanni yuqori kurs talabalariga ixtisoslik fani sifatida o'qitish mo'ljallangan.

Xuddi shuningdek, magistratura mutaxassislari o'quv rejalarga ham bir qator fanlar kiritildi. Masalan, fizika (fizikaviy ekologiya) mutaxassislari o'quv rejasiga dozimetriya asoslari va radiatsion ekologiya, ionlovchi nurlanishlar va ulardan himoyalash fanlari, atom yadrosi va elementar zarralar fizikasi, tezlashtiruvchi texnika mutaxassislari o'quv rejasiga yadro reaktorlarining fizik asoslari, yadro elektronikasi kabi fanlar kiritildi. Bu fanlar bo'yicha o'quv laboratoriyalari ham tashkil etilmoqda. Bundan tashqari, fizika yo'nalishidagi barcha magistratura mutaxassislari talabalarga yadroviy nurlanishlarning moddalar bilan o'zaro ta'siri fanini o'qitish mo'ljallandi. Talaba va magistrantlarning o'qitilayotgan fanlarni chuqurroq anglab yetishi, olgan nazariy bilimlarini mustahkamlashga ko'maklashish maqsadida laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish va mazkur magistratura mutaxassislari fanlari bo'yicha o'quv laboratoriyalarini eng zamonaviy uskunalar bilan ta'minlash borasida MAGATE xalqaro tashkiloti bilan hamkorlik qilinmoqda. Bunday hamkorlik doirasida tashkilotning Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha texnik hamkorlik direktori va MAGATE ekspertlari ishtirokida 2019-yil may oyida o'tkazilgan seminar-treninglarda atom energetikasi bo'yicha mutaxassislarni tayyorlash, magistratura mutaxassislari o'quv rejalarga yadro texnologiyasi va yadro energetikasiga oid fanlarni kiritish va keyingi o'quv yilidan boshlab yadro elektronikasi, dozimetriya asoslari va radiatsion ekologiya va yadro reaktorlarining fizikaviy asoslari kabi o'quv laboratoriyalarini tashkil etish hamda ularni eng zamonaviy uskuna va qurilmalar bilan ta'minlash bo'yicha kelishuvlarga erishildi.

R.ESHBO'RIYEV,
Samarqand davlat universiteti
"Yadro fizikasi" kafedrasini mudiri

Fikr, mulohaza, taklif

(Davomi. Boshi 1-betda.)

Birinchidan, adabiyot o'qitish metodikasi ilmda o'z yechimini topgan nazariy qarashlarning amaliyotga tatbiqi. Maktabda adabiyot o'qitish metodikasi ilmda: mumtoz adabiyot namunalarini o'rganish; o'quvchilarni mustaqil fikrlashga yo'naltirish; sa-vol-topshiriqlar bilan ishlash; badiiy matn tahlilining ustuvorligi; insholarni tashkil etish, insho turlari, ularni bugun-gi mezonlar asosida baholash va boshqa shu kabi qator muammolar o'z nazariy yechimini topdi. Lekin bularning biror-tasi adabiy ta'lim amaliyotiga singdirilmayapti. O'qituvchilarga yetib bormayapti. **Adabiyot o'qitish amaliyoti o'sha eski o'zanida davom etyapti. Ilm o'z yo'lida, amaliyot o'z yo'lida faoliyat olib bormoqda.** Ya'ni, nazariya bilan amaliyot o'rtasida uzviylik yo'q. **Buning sababi shundaki, Respublika ta'lim markazi mutasaddilari, "Adabiyot" darsliklari mualliflari, o'qituvchilar malakasini oshirish markazlari xodimlari adabiyot o'qitish metodikasi ilmidagi mazkur yangiliklardan bexabar.** Bundan tashqari, metodist-mutaxassislar darsliklar yaratish jarayoniga jalb etilmagan. Ta'lim markazida faoliyat olib borayotgan ilmiy-metodik kengash filologlar va amaliyotchi o'qituvchilar bilan ish olib boradi. O'qituvchilar malakasini oshirish tizimida metodist olimlar bilan aloqa o'rnatilmagan. Oliy ta'lim muassasalaridagi ona tili va adabiyot o'qituvchilarini tayyorlash tizimida sohadagi ilmiy-nazariy yangiliklar o'rganilmaydi. Sohadagi muammolarning nazariy yechimi amaliyotga tatbiq etilmas ekan, adabiy ta'limda muvaffaqiyatga erishish mumkin emas. Buning uchun ona tili va adabiyot o'qituvchilarini tayyorlash tizimi, o'qituvchilar malakasini oshirish jarayoni, Respublika ta'lim markazi metodist olimlar bilan birgalikda faoliyat olib borishi, sohaning barcha jabhalariga metodist olimlarni jalb etish, sohadagi muammolarni mutaxassislar bilan bamaslahat, hamkorlikda hal etish maqsadga muvofiq.

Ikkinchidan adabiyot darslarida bilim berish emas, tarbiyalanuvchilar ma'naviyatini sog'lomlashtirishning ustuvorligi. Ma'lumki, adabiy ta'limning bosh maqsadi "ma'naviy barkamollik yo'lini tutgan" shaxsni shakllantirishdan iborat. Adabiy ta'limda hamma narsa — o'quv rejasi, ta'lim konsepsiyasi, standarti, dastur, darslik, o'quv va metodik qo'llanmalarining barchasi mana shu maqsadga erishish vositasidir. Ularning har biri mazmunan shu maqsadga xizmat qilmog'i lozim. Ertaga qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat'i nazar, bugungi o'quvchi, avvalo, sog'lom ma'naviyatli shaxs bo'lib shakllanishi, muhimni nomuhimdan, oqni qoradan, halolni haromdan farqlaydigan, ma'naviy komillik sari yuz burgan, millat, mamlakat kelajagi uchun qayg'uradigan ODAM bo'lib shakllanishi lozim. U adabiyotga xos bo'lgan nazariy bilimlarni bilmasligi mumkin, lekin odamiyligni ustuvor qo'ya bilishi, Yaratuvchi qudratning bandalari oldiga qo'yg'an talablariga javob bera

oladigan bo'lib tarbiya topishi maqsadga muvofiqdir. Bularning hammasi adabiyot darslarida, adabiy qahramonlarning xatti-harakatlarini, o'y-fikrlarini tahlilga tortish, ularga munosabat bildirish, oqlash yoki qoralash, sabablarini aniqlash, mohiyatiga kirish jarayonida shakllana boradi.

Uchinchidan, adabiy ta'limda, u o'qitishning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, badiiy asarlar didaktik tahlilining yetakchi ahamiyat kasb etishi. Adabiy ta'lim salkam o'ttiz yildan beri yangilangan tafakkur sharoitida faoliyat olib bormoqda. Bu jarayon shaklida o'zgarishlar bo'ldi, lekin mazmuniy o'zgarishlar talab darajasiga chiqa olmayapti. Sababi, bu kechimoni amalga oshiradigan o'qituvchi bo'lsa, uning shaxsida ham, faoliyatida ham zaruriy o'zga-rish amalga oshmadi. Professor Q.Yo'ldoshev: "Aslida, adabiyot tarixiga daxldor biror dalilni sharillatib aytib bera oladigan, ammo ma'naviyatida ezgu fazilatlar bo'lmagan o'quvchidan ko'ra, ayrim adabiy ma'lumotlar tizimini bilmasa ham, badiiy asarlarning qahramonlariga xos insoniy fazilatlarini o'z tabiatiga singdirgan, sirtidan qaraganda, nafaoldek tuyuladigan o'quvchilar jamiyat uchun ko'proq zarurdir", deganida ma'naviy asos bor. Adabiyot kelajakda hayotining mazmuniga aylanadigan o'quvchilar uchun nazariy bilimlarni maktab davridan bilib borish muhim, albatta, lekin boshqa har qanday soha xodimlari uchun bunday bilimlardan ko'ra odamligni kashf etish, odam bo'lishga intilish bundan muhimroqdir. Shu bois bugungi adabiy ta'limni maqsadiga muvofiq tarzda shakllantira oladigan o'qituvchilarini tayyorlash vaqti allaqachon kelgan. Gap shundaki, o'qituvchi ko'tarilmas ekan, millat ko'tarilmaydi, millat yuksalmas ekan, mamlakat yuksalmaydi.

To'rtinchidan, adabiyot o'qitish jarayonida hamkorlik pedagogika-sining ustuvor ahamiyatga molik ekan. Nafaqat milliy adabiy ta'lim, balki butun o'qitish tizimi haligacha o'qituvchining hokimligidan qutula olgani yo'q. Kechagi jamiyatdan qolgan bu illatni haligacha o'qitish kechimidan chiqarib yubora olmayapmiz. Mustaqil fikrlaydigan, o'z qarashlariga ega bo'lgan, o'zgalarga ko'r-ko'ronda ergashavermaydigan, o'rni kelganda qarashlarini himoya qila oladigan va haqiqat uchun kurasha biladigan shaxsni shakllantirish uchun adabiy ta'lim amaliyotida yosh avlodga hokimlik qilish, uni boshqarish va o'qitishni bas qilib, uni o'zi o'qiydigan, bilimlarni mustaqil ravishda o'zlashtirishga intiladigan, fikr aytishga, munosabat bildirishga yo'naltiradigan, uning qarashlari, xulosalari bilan hisoblashadigan muhit yaratilishi lozim. Bu dunyo miqyosida yo'lga qo'yilgan hamkorlik pedagogikasi amalga oshirilgan sharoitdagina tarkib topishi mumkin. Adabiy ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchilar bir maqsad yo'lida faoliyat yurituvchi teng huquqli hamkorlarga aylanmas ekan, bunday avlodni shakllantirib bo'lmaydi.

Adabiy ta'lim metodikasidagi o'n muammo

Beshinchidan, adabiyot darslarida o'quvchi-talabalarni insho yozishga yo'naltirish shaxsni tarbiyalashning asosi ekan. Ma'lumki, insho adabiy ta'limdagi muhim didaktik ish turlaridan biridir. Lekin bugun adabiyot o'qitish tizimida uning qadr-qimmatini yo'q darajaga tushib qoldi. Ayniqsa, oliy ta'lim muassasalariga kirish imtihonlarining test asosida amalga oshirilishi adabiyot o'qitish tizimini sanalar va axborot shaklidagi ma'lumotlarni yodlash jarayoniga aylantirib qo'ydi. O'qituvchi ham, o'quvchi ham, ota-onalar ham oliy ta'lim muassasasiga kirishni asosiy mezon deb hisoblammoqda. Vaholanki, o'quvchilarning shaxsiy sifatleri oliy o'quv yurtiga o'qishga kirish bilan belgilanmaydi. Odamning bir nechta diplom bo'lishi mumkin, lekin oddiy insoniy fazilatlardan mahrumligi uning millat va jamiyatdagi mavqeyiga putur yetkazishi mumkin.

Ta'kidlash o'rinliki, adabiyot darslarida yoziladigan insholar ona tili ta'limidagi insholardan farqlanadi. Ona tili darslarida tashkil etiladigan insholarda o'quvchilarning savodxonlik darajasi, yozma nutqining nechog'lik rivojlanganini nazorat qilish ustuvorlik qiladi. Adabiyot darslarida olinadigan insholarda esa o'quvchilarning shaxsiy munosabati, qahramonlarning xatti-harakatlariga bahosi, mustaqil xulosa va qarashlarini nechog'lik asoslay bilgani singari masalalar ustuvorlik qiladi. O'qituvchilarning ko'pchiligi mana shu bilimlardan, adabiy ta'limda tashkil etiladigan insholarning turlari va ularni baholash mezonlaridan bexabar. Bu masala adabiy ta'lim metodikasi ilmda o'z yechimini topgan. Avvalo, bo'lajak o'qituvchilarni bu kabi bilimlardan xabardor qilish, so'ng maktab adabiy ta'limida insholarni qayta tiklash davr talabi. Mamlakat va millat talab qilayotgan mustaqil fikrlar, o'z dunyoqarashi va shaxsiy qarashlariga ega avlodni tarbiyalashda inshoning o'rni beqiyos.

Oltinchidan, maktab adabiy ta'limi jarayonini tarbiyalanuvchilar qiziqishiga moslashtirgan holda multimedialar asosida tashkil etish zaruriyati. Ma'lumki, qancha ko'p taqiq qo'yilsa, o'sha taqiqlangan narsalarga qiziqish ortadi. Odamning tabiati shunday. Bugun o'quvchilarni internetdan uzoqlashtirishga urinmay, undan oqilona foydalana bilishga, kompyuter va internetdan o'z bilimi hamda saviyasini oshirishda foydalanishga, unga to'g'ri

yondashishga yo'naltirish maqsadga muvofiq. Internet bilimlarni o'zlashtirishda zamonaviy manba hisoblanadi. Gap shundaki, undan har kim o'z saviyasi darajasida foydalanadi. Hozir katta-yu kichikning internetga qiziqishi kuchli. Maktab adabiy ta'limi bolalarga xos bo'lgan shu qiziqishdan oqilona foydalangani maqsadga muvofiq. Ya'ni, milliy tarbiyashunoslik amaliyotini o'quvchilarning tabiiy xususiyatlariga, qiziqishlariga moslashtirish (bizda aksincha, bolalar maktabga kelishi bilan muassasa qonun-qoidalariga bo'ysundiriladi) ma'naviy barkamollik yo'lini tutgan shaxslarni shakllantirish garovidir. Bugun kompyuter va internet yoshlarning asosiy hayot va faoliyat manbayiga aylanib bormoqda. Shuning uchun adabiy ta'limni, uning har bosqichida, imkon qadar internetdan foydalanishga yo'naltirish, o'quvchilarni beriladigan topshiriq va vazifalarni internetga murojaat qilgan holda bajarishga yo'naltirish ta'lim jarayonini ham qiziqarli, ham foydali faoliyatga aylantiradi. Buning uchun o'qituvchilarning o'zlari kompyuter va internetdan oqilona foydalana bilishi shart.

Yettinchidan, badiiy asarlarga ishlangan tasviriy san'at namunalarini o'qishga o'rgatish masalasining hamon ochiqligi. O'zbek milliy tarbiyashunosligidagi muammolardan yana biri o'quvchilarimizning tasviriy san'at namunalarini o'qishga o'rgatilmagligidir. Bu muammo hatto kechagi jamiyat tarbiyashunosligi amaliyotida ham o'zbek adabiy ta'limi va tasviriy san'at darslarida nazardan chetda qolib kelgan. Tasviriy san'at namunalarini o'qishga o'rgatish ham tasviriy san'at, ham adabiy ta'limning vazifasi. Bunday ta'lim o'quvchilarni ziyraklikka, mantiqiy mulohaza yuritishga, muhim va nomuhimni farqlashga, insonni o'qish, uqish va anglashga o'rgatadi. Ayniqsa, badiiy asarlarga ishlangan suratlar o'qishga yo'naltirish, asar matni, tasviriy namunalarini taqqoslab o'rganish o'quvchilarni badiiy matn mohiyatiga chuqurroq kirish, ham mustaqil, ham mantiqiy mulohaza yuritishga yo'naltirishda qo'l keladi. Ayni zamonda maktab "Adabiyot" darsliklarini miniatyuralar va milliy amaliy san'at namunalarini hamda badiiy asarlar mazmuni asosida yaratilgan suratlar bilan bezash ham muhim ahamiyatga ega.

Sakkizinchidan, maktab adabiy ta'limida o'quvchilarning uy ishlari

"Aslida, adabiyot tarixiga daxldor biror dalilni sharillatib aytib bera oladigan, ammo ma'naviyatida ezgu fazilatlar bo'lmagan o'quvchidan ko'ra, ayrim adabiy ma'lumotlar tizimini bilmasa ham, badiiy asarlarning qahramonlariga xos insoniy fazilatlarini o'z tabiatiga singdirgan, sirtidan qaraganda, nafaoldek tuyuladigan o'quvchilar jamiyat uchun ko'proq zarurdir".



noto'g'ri tashkil etilishi bilan bog'liq kamchiliklar. Milliy tarbiyashunoslikda, nafaqat adabiy ta'lim, balki barcha fanlarni o'qitishda o'quvchilarga uy vazifalari berishning mezonini belgilanmagan. Oliy ta'lim muassasalarida bo'lajak o'qituvchilarga bu haqida bilim berilmaydi. Sababi, metodika ilmda bu masalaning nazariy va amaliy jihatlari o'z yechimini topmagan. Uy vazifalari berishda o'quvchilarning yoshi, intellektual imkoniyatlari, psixologik xususiyatlariga tayanish, uy vazifalarining sinfda o'tilganlarni takrorlashga emas, balki mustahkamlashga yo'naltirilishi, uy vazifalarini bajarishning majburiy emasligi, uning o'quvchilar qiziqishiga monand holda berilishi, qaysi sinfda kimga, qancha va qanday mazmunda uy vazifalari berilishi, ularning qaysisi shaxs shakllanishi uchun samarali bo'lishi, uy vazifalarining tanlash imkoniyati bilan berilishi kabi qator muammolar adabiy ta'lim metodikasi oldidagi o'z yechimini kutayotgan dolzarb muammolardandir.

To'qqizinchidan, adabiyot darslarida muammoli ta'limning yetakchi ahamiyat kasb etmayotgani. Milliy adabiy ta'lim metodikasi ilmda ham, amaliyotida ham muammoli ta'limdan oqilona foydalanilmayotgani bu sohada eng og'riqli masalalardandir. O'quvchilarning ta'lim olish va bilimlarni o'zlashtirishdagi mustaqilligi, o'z-o'zini tarbiyalashdagi faoliyati ustuvorligini ta'minlash bevosita muammoli ta'lim bilan bog'liq. U mustaqil, mantiqiy, ilmiy, ijodiy fikrlashga o'rgatish, bu yo'lga uchragan to'siqlarni mustaqil ravishda, ijodiy yondashgan holda bartaraf etish garovidir. U o'quv materialini o'zlashtirilganini tez namoyish etadi, uni mustahkamlaydi, bilimlarni qat'iyalashtiradi. O'quvchida o'qishga ijobiy hissiy munosabat uyg'otadi, bilim olishga ichki ehtiyoj paydo qiladi. Bunday ta'limda bugun-

gi tarbiyashunoslikning asosiy vazifasi — o'quvchida shaxsiy sifatlar shakllanishi, rivojlanishi muvaffaqiyatli kechadi. Adabiyot o'qitish metodikasi ilmda adabiy ta'lim amaliyotida muammoli ta'limdan foydalanish yo'llari, nazariy va amaliy tavsiyalar doktorlik dissertatsiyasi darajasida ishlab chiqilgan. Lekin

o'tgan asrning 20—30-yillari boshlangan. Bugungi kunda jahon amaliyotida o'quv materialining o'qishlik indeksi talablariga mos kelishiga e'tibor qaratib kelinmoqda. AQShning ko'pgina shtatlarida matnning o'qishlik indeksiga muvofiq kelishi qonun bilan ham belgilab qo'yilgan. Rossiyada ham bu borada

Ayonki, ingliz tilining ma'lumotlilik darajasi boshqa tillarga nisbatan yuqori. Masalan, rus tilida bitilgan matn ingliz tilida yozilgan matnga nisbatan jumllarning uzunligi, so'zlarning ko'p bo'g'iniligi va belgilarning ko'pligi bilan farqlanadi. Ya'ni ingliz tilidagi bir jumla rus tiliga tarjima qilinganda taxminan 20 foiz kengayadi yoki aksincha, rus tilidagi bir jumla ingliz tiliga tarjima qilinganda hajmi 20 foiz qisqaradi.

uning adabiy ta'lim amaliyotiga keng miqyosda singdirilmayotgani sohadagi kamchiliklardan biridir. Mana "Adabiyot o'qitish metodikasi" darsligi yangilandi. Unda bu muammolarning ko'pchiligini bo'lajak o'qituvchilarga yetkazish nazarda tutilgan. Shu tariqa bu boradagi qarashlar adabiy ta'lim amaliyotiga kirib borishiga umid qilish mumkin.

O'ninchidan, "Adabiyot" darsliklarini yaratishda dunyo miqyosida didaktik ashyolar matniga qo'yiladigan talablarning "O'qishlikning Flesh indeksi" bilan bog'liqligi. Dunyo ta'lim tizimi, o'qitish amaliyotida bugun biz duch kelayotgan muammolarning sabab va oqibatlari, yechimi hal etib qo'yilganiga ancha bo'lgan. Lekin ular faoliyatidagi yutuqlarni ko'r-ko'ronda ko'chirib olish bu borada katta xatolikka yo'l qo'yish bo'ladi. Har qanday matnning "o'qishlik" darajasini standartlashtirish masalasi dunyo miqyosida

qator tadqiqotlar olib borilgan. Qozog'istonda ham darsliklarga qo'yiladigan talablarda Flesh indeksiga moslik kiritilgan. O'zbekistonda hali bu borada izlanishlar kuzatilganicha yo'q.

Flesh indeksi(muallifi amerikalik Rudolf Flesh) ingliz tilidagi o'quv materialining o'quvchi tomonidan o'zlashtiriluvchanlik darajasini aniqlash mezonidir. Flesh matnlarning balandparvoz, jimjimador bo'lishiga qarshi bo'lgan. Fikrni aniq, tushunarli, sodda ko'rinishda berish imkoni bo'lganda, sun'iy murakkablashtirishdan qochish lozimligini uqtirgan. O'qishlik indeksi — matni anglashning murakkablik darajasini aniqlash o'lechovi.

Fleshning matnlar o'qishligi darajasini aniqlovchi formulasi — $FRES = 206.835 (1.015 \times ASL) - (84.6 \times ASW)$ dagi FRES (Flesh Reading Ease Scale) — Flesh indeksining daraja ko'rsatkichi (shkalasi)ni; ASL(average sentence

length) — so'zlarning ajratib olingan jumladagi o'rtacha soni(gapning uzunligi)ni; ASW (average number of syllables per word) — bo'g'inlarning so'zdagi o'rtacha sonini ifodalaydi.

Rossiyada I.V.Oborneva bu mavzuda ilmiy ish yoqlab, rus tilidagi matnning o'qishlik darajasini aniqlagan. O'zbekistonda bu muammo bilan Mahfuza To'ychiyeva shug'ullanmoqda.

O'qishlik indeksining ikki shakli mavjud bo'lib, biri Flesh indeksi, ikkinchisi Flesh-Kinkeyd indeksi deb nomlanadi. Bu indeksning biri — Flesh indeksi matnning o'qishlik darajasini ko'rsatsa, ikkinchisi — Flesh-Kinkeyd indeksidan maktab o'quvchisining matnlarni o'zlashtirishdagi bilim darajasini aniqlash uchun foydalaniladi.

Ayonki, ingliz tilining ma'lumotlilik darajasi boshqa tillarga nisbatan yuqori. Masalan, rus tilida bitilgan matn ingliz tilida yozilgan matnga nisbatan jumllarning uzunligi, so'zlarning ko'p bo'g'iniligi va belgilarning ko'pligi bilan farqlanadi. Ya'ni, ingliz tilidagi bir jumla rus tiliga tarjima qilinganda taxminan 20 foiz kengayadi yoki aksincha, rus tilidagi bir jumla ingliz tiliga tarjima qilinganda hajmi 20 foiz qisqaradi. M.To'ychiyeva o'zbek tilidagi (maktab "Adabiyot" darsliklaridagi matnlar misolida) matnning "O'qishlikning Flesh indeksi"ga moslik darajasini aniqlashga harakat qilgan. Buning uchun u o'zbek tilidagi matnning ingliz va rus tillariga tarjima qilgan. Mazkur indeks asosida ularning murakkablik darajasini belgilagan, o'zaro taqqoslagan va shu asosda o'zbek tilidagi matnning o'qishlik indeksi koeffitsiyentini aniqlashga, ya'ni o'zbek tilidagi matnning ma'lumotlilik darajasi rus tiliga nisbatan 10 foiz, ingliz tiliga nisbatan 30 foiz yuqori ekanini aniqlashga erishgan. Bu mezonni, hozircha, qat'iyo'lechov sifatida qabul qilish qiyindir, uning qanchalik to'g'ri ekanini vaqt ko'rsatar, lekin milliy ta'lim tizimida matnlarning o'qishlik darajasini o'lchashda dunyo miqyosidagi mezonlarga qo'lurilishini sohadagi muammolarni bartaraf etish yo'lidagi izlanishlar namunasi, deyish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, sanalgan bu jihatlar adabiy ta'limga xos bo'lgan muammoli masalalarning bir qismi. Adabiy ta'limda, u adabiyot o'qitishning qaysi bosqichida bo'lishidan qat'i nazar, bu muammolarning bartaraf etilishi bevosita o'qituvchilar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari bilan bog'liq. Ilmdagi yangiliklar amaliyotga tatbiq etilmas, ya'ni bo'lajak o'qituvchilar ruhiyatiga singdirilmas ekan, ta'lim jarayonida ham, iqtisodiyotda ham, siyosatda ham siljish, muvaffaqiyatga erishish, mamlakatning buyuk kelajagini barpo etish qiyinchilik va juda sekinlik bilan amalga oshadi.

Qunduzxon HUSANBOYEVA,
pedagogika fanlari doktori,
dostent

Bugunning gapi

Telefonga tobelik

Kundalik turmushimizni qoʻl telefoni toʻla ishgʻol etib oldi. U bilan mushkulimiz oson, uzogʻimiz yaqin. Ammo bu matohning salbiy jihatlari-chi? Ajralmas hamroh tufayli turli koʻngilsizliklar tez-tez uchramoqda. Ayrim kimsalar uni ota-ona-yu jon jigar, yor-u birodaridan aziz koʻrayotgani achchiq haqiqatdir. Hattoki telefondan bir zum ayro yashashni tasavvur etolmaslik maʼnaviy fojiga aylanib ulgurd. Keling, telefon titkilashni bas qilaylik. Bu ishni oʻzimizdan boshlab, boshqalarga oʻrnak boʻlaylik. Chetdan qaraganda juda xunuk koʻrinadigan bu manzaraga chek qoʻyish vaqti keldi.

Kursdoshim tugʻilgan kuniga taklif qildi. Shinam qahvaxona. Davrada hamkasblar, yaqin dugonalardan iborat oʻn chogʻli ayol. Shoʻx musiqa yangradi. Davradoshlar qoʻlida telefon, baʼzilari internet olamida “sayr” qilib yuribdi. Yana biri kim bilandir muloqotda. Atrofga razm solaman. Boshqa davralarda ham xuddi shu ahvol. Oxiri dugonalarimizdan birining toqati toq boʻldi-da: “Ey, bu nima qiliq, yigʻishtiringlar telefonni. Bir inson siz bilan quvonchli kunini nishonlash uchun chiroyli bazzam uyushtirsa-yu, qilayotgan ishingizni qarangi!”, degach, ishqibozlar zoʻrgʻa telefondan bosh koʻtardilar. Nahotki, davramiz sohibasiga tilak bildirib, xursandchilikiga sherik boʻlish uchun kelganimizni eslatish shart boʻlsa...

Tushlikdan keyingi sayrda hamkasblarimga sodir boʻlgan qiziqarli voqeani soʻzlay boshladim. Shunda ikki hamkasbimning ham fikri-zikri qoʻl telefonidagi yozishmalarni oʻqish bilan band ekanligini payqab qoldim. Hafsalam pir boʻlib, soʻzlashdan toʻxtadim. Ular buni sezmadim ham.


Oradan ikki-uch kun oʻtib aksincha boʻldi. Hamkasbim soʻzlar, men esa qoʻl telefonimni titkilardim. Bundan uning jahli chiqdi: “Hoy inson, men sizga gapiryapman!”, “E, ha shundaymi, uzr, chalgʻib ketibman. Lekin siz ham mening jahlimni chiqargan edingiz, telefon titkilab!”, dedim. U aybiga iqror boʻlgandek jim boʻlib qoldi.

Ota ishdan charchab uyga keldi. Beshikda goʻdak yigʻlab yotganini koʻrib: — Hoy onasi, bolaga qara, — dedi. — Tebratsam ham ovunmayapti, — deydi bir qoʻli bilan beshikni tebratib, bir qoʻlida telefonni titkilagan ona bamaylixotir.

— Alla ayt, erkalatib gaplash, qanday onasan, bir bolani uxlatolmasang — deydi er jigʻibiyron boʻlib.

Onaning esa parvoysi falak, telefon uni ohanrabodek oʻziga tortadi.

Ona-bola bogʻchadan qaytmoqda. Bola kim bilan oʻynagan, qanday ovqat yegani va oʻrtogʻining antiqa qiliqlari haqida biyron-biyron soʻzlaydi. Ona esa mobil “matoh”ni qulogʻiga yopishtirib olgan, berilib tinglaydi. Bola bergan savollarni eshitmadi ham. Unga telefondagi



muloqot muhimroq. Suhbatga xalal bergani uchun bolani ahyon-ahyonda urishib qoʻyadi.

Jiyanim anchadan buyon uchrashmagan qadrdon dugonasini mehmonga taklif qildi. Mehmonni ziyoratga olib ketib, kechga tomon hafsalasi pir boʻlib qaytdi. Sababini soʻrasam: “Shu ham ziyorat boʻldimi? Unga ziyoratgoh tarixi haqida soʻzlab beraman, yangi qurilishlarni koʻrsatib maqtanaman, deb xomxayol qilgan ekanman. Tabarruk maskanga kirganimizdan chiqib ketgunimizga qadar qoʻlidan sotka tushmadi. Oʻzini tinimsiz suratga oldi, tanishlariga joʻnatish bilan band boʻldi”. Nega ziyoratga bordi, qanday ruhiy ozuqa oldi, oʻzi ham bilmaydi.

Aksariyat xonadonlarda kechki ovqatdan soʻng hammaning koʻzi televizorda, ammo xayoli va qoʻli telefonda. Birovning oʻy-xayoli, dard-u tashvishi bilan oʻrtogʻlashadigan zamonlar oʻtib ketdi, oila aʼzolari bir-biri bilan soʻzlashmaydi. Bu olamda faqat telefon va televizor bor, xolos.

Kunning qaysi vaqti boʻlishidan qatʼi nazar, bekatlarda transport kutayotgan yoxud biror yumush bilan koʻchada keta-

yotganlarni kuzating, aksariyatida telefon. Avtobusda, ishxonada, tamaddixonay doʻkonda, toʻy tomosha-yu koʻngilochar tadbirlarda, teatr va konsertda, sayohat va ziyoratda, xullas, qayerga qaramang, ana shunday manzaraga duch kelasiz. Eng yomoni, bu tabiiy holga aylanib ulgurd, jonli diydorlashuv unutilmoqda. Barchamiz bu haqiqatni bilamiz. Eng betakror lahzalar boy berilmoqda. Oʻrtga qaytmas begʻubor damlar telefon tufayli qoʻldan chiqarib yuborilyapti. Holbuki, hech bir SMS yoki surat yuzma-yuz suhbat gashti va sururini bermaydi. Ota-ona va qadrdonlar yuz-koʻziga boqqanda, samimiyat beixtiyor yurakning qat-qatiga joylanadi.

Bir zum toʻxtang, atrofigizda sodir boʻlayotgan voqea-hodisalarga tiyrak nigoh bilan boqing. Beparvolik, loqaydlilik, sovuqqonlikka sabab boʻladigan, hushyorlik va ziyraklikning kushandasiga aylangan jonsiz matoh — telefondan oʻzingizni qutqaring. Boisi, bu matoh qoʻlida yoki qulogʻida boʻlgan kishi hech qachon vaziyatni toʻliq idora etolmaydi. Hayotdan zavqlanib yashash unga begona. Telefonga tobelikdan xalos boʻling. Jonli hayot, yuzma-yuz suhbat qalbingizni nurafshon aylasin!

Hidoyat JOʻRAYEVA

Mavzuga qaytib

Ertakning yangisini eshitamiz!

Esimda, onam doim nevaralariga ertak aytib berardi. Hozir, beixtiyor oʻsha matallardan biri xayolimga keldi:

— Bor ekan-u, yoʻq ekan, och ekan-u toʻq ekan, boʻri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qargʻa qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan... Oʻtgan zamonda bir boy boʻlgan ekan. Uning bir eshak va bir hoʻkizi bor ekan. Boyning yeri koʻp boʻlib, qarol, qoʻshchilarga ekin ektirib, kun oʻtkazarkan. Uning oʻgʻillari koʻpincha eshak minib yurisharkan. Ota eshakka yarasha egar-toʻqim qildirib bergan ekan...

Shu payt bolalar negadir, atrofga olazarak boqa boshlashdi.

— Ena, akamga aytning, fotoapparatni bersin! Qachon bozorga borasiz? Mengayam opkeling, shunaqa...

Onam beixtiyor kulib yubordi.

— Men ertak eshitishyapti, desam, bularning xayoli fotoapparatda ekan-ku! Hozir nima qilasan, buni? Katta boʻlsang, oberaman.

— Eshi-it, ertakni oxirigacha!

Jiyanim zoʻrma-zoʻraki onamning ogʻziga tikildi. Biroz oʻtib, yana tipirchilay boshladi. Onam toʻrt-besh qayta tizzasiga olib, eshitishga undasa ham fikr-u zikri mixda osigʻliq turgan fotoapparatda edi.

...Bugun nafaqat kattalar, balki bolalar ham fotoapparat, kompyuter, telefonga muqassidan ketgan. Otasi yo

akasi uyga kirib kelsa, bola zoti tappa qoʻlidagi telefonga yopishadi, ichini titkilab, oʻyin axtarishga tushadi.

Olimlarning aniqlashicha, bugungi axborot asrida bolalarni texnikadan yiroq tutish qator kasalliklarga qarshi kurashda juda muhim ekan. Bola terisi juda yupqa boʻlib, texnik moslamalar tarqatayotgan nurni organizmiga oson oʻtkazadi.

Tadqiqotchilar uxlayotgan bola yoniga telefon apparatini qoʻyib, ikki soat davomida taʼsirni oʻrganishdi: bola asabiy uygʻongan, miyasida shovqin paydo boʻlgan. Oʻsmirlik davrida zamonaviy texnika vositalaridan huda-behuda foydalanish salbiy oqibatlarga olib keladi.

— Bolaning fikri tez oʻzgaradi, — deydi psixolog Muyassar Ahmedova. — Ularni ertak bilan ovtutirib boʻlmay qoldi. Dastlabki besh soniyada uning diqqatini jamlay olmasangiz, keyin ming urining, natija chiqmaydi. Buviyonlar esa ertakni asta-sekin, yotigʻi bilan tushuntirib, aytishadi. Kichikintoyning buni qabul qilishi oson kechmaydi. “Uch ogʻa-ini botirlar”, “Ur, toʻqmoq”, “Zumrad va Qimmat” singari ertaklarning tezlashgan varianti kerak. Bolalar adabiyoti mutasaddilari ana shu jihatga eʼtibor qaratishsa, yaxshi boʻlardi. Uchar gilamning bola zotiga qizigʻi yoʻq, chunki ular uchun hamma maʼlumot televizor, internetda muhavyo.

“Ertaklar yaxshilikka yetaklaydi, ertak eshitgan bola bironva yomonlikni ravo koʻrmaydi”, deyishadi. Texnologiya asrida oʻgʻil-qizlarimizning ertakka boʻlgan ehtiyojini qondirib borish foydadan xoli emas.

— Nevaram Komronga ertakni turli usullarda aytishga harakat qilaman, — deydi boʻkalik otaxon Baxtiyor Sidiqov. — Toʻqib aytсам, berilib eshita boshlaydi, rolga kirishib ketaman. Bolalikda ota-onamiz choʻpchak aytasa, ishonardik. Hozirgi bolalar anoyi emas. Zamon tezlashdi, har kuni yangi axborot. Albatta, ertak yozish, toʻqib aytish osonmas. Ammo ertak mazmuni puxta, mentalitetimizga mos boʻlsa, xohlagan usulda aytning, bolaga baribir taʼsir koʻrsatadi.

...Balki onam ertakni bir vaqtlar bizga soʻzlaganidek sokinlik bilan aytgani jiyanimga maʼqul tushmay tipirchilayvergandir? Jiyanimni, ertak bilsang, birortasini aytib ber, deya qistadim.

U boshlab ketdi:

— Bor ekan-u, yoʻq ekan, och ekan-u toʻq ekan, boʻri bakovul ekan, tulki yasovul ekan, qargʻa qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan... Oʻtgan zamonda bir boy boʻlgan ekan. Uning bir eshagi va bir hoʻkizi bor ekan...

U beixtiyor toʻxtadi.

— Keyin-chi?

— Bilmayman, esimdian chiqibdi.

Kulib yubordim. Choʻpchak uning esidan chiqmagan, balki davomini umuman eshitmagan...

Xulosa shu: barkamol avlodni tarbiyalashda ertakning oʻrni alohida. Hamma ham eshitadi, gap ertakni qanday yetkazib berishda! Bobo-momolarimiz ertakni davr va zamonga moslab aytib bersa, bolakaylar balki qiziqib tinglar...

Olimjon JUMABOYEV

Farzandingiz 10-11 yoshgacha hali bola ekanligini hisobga oling va bolaligini his qilishiga sharoit yaratib bering.

Nechanchi farzandsiz?

Farzandlarning oilada nechanchi bo'lib tug'ilgani ularning xarakteriga ta'sir qilishi mumkinligi haqida hech o'ylab ko'rganmisiz? Masalan, to'ng'ich farzandlar mas'uliyatli, jonkuyar, o'rtancha farzandlar nisbatan befarqroq, kenja farzandlar erka, fikrini erkin aytoладigan bo'lishadi. Zigmund Freydning ta'kidlashicha, farzandning opa-singil va aka-ukalari o'rtasida qanday pozitsiyani egallagani uning shaxs sifatida shakllanishi, kamol topishida hal qiluvchi omillardan biri sanaladi. Ya'ni, bolaning katta, o'rtancha yoki kenja bo'lib tug'ilishi uning xarakter xususiyatiga, hayotiga, xulq-atvoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Bu fikrning qanchalik to'g'riligini bilish uchun psixolog Durдона Yormuhamedovaga murojaat qilamiz.

Har bir farzand o'ziga xos xarakter, xislatga ega bo'ladi. Bunga oilada tutgan o'rni ham ma'lum ma'noda ta'sir ko'rsatadi. Keling, hozir farzandlarning har biriga alohida-alohida ta'rif berib o'tishga harakat qilamiz. Demak:

To'ng'ich

Tadqiqotlarga qaraganda, ko'pgina katta farzandlar o'zidan keyin tug'ilganlarga nisbatan maqsadga erishishda qat'iyatliroq, mas'uliyatli, hamma narsani to'g'ri va yuqori darajada bajarishga harakat qiladigan, tartib-intizomli bo'ladi. Boshqa tomondan ularni boshqarish unchalik ham oson emas, birinchi farzandlar tug'ma yetakchilardir. Ayrim ota-onalar "Farzandimda liderlik qobiliyati mavjud emas, axir, u ta'sirchan va so'z boyligi kam", deyishlari mumkin. Aslida yetakchilik qobiliyati har doim ham ochiq namoyon bo'lavermaydi. Aksincha, yashirin liderlar ko'proq natijaga erishadilar, ya'ni o'zining to'g'risozligi, vijdonliligi, atrofidaqlarning rahmini keltirish orqali ham o'z fikrini ma'qullatishi va boshqalarni ergashtirishi mumkin. Katta farzandlarda esa yuqoridagi sifatlar kuchliroq rivojlangan bo'ladi. Statistika ko'ra, to'ng'ichlar yuqori natijalarga erishadi va katta lavozimlarni egallaydilar. Birinchi tug'ilgan farzandlar orasida quyidagi kasb egalari ko'p uchraydi: arxitektor, kompyuter tizimi injeneri, menejer, yurist va hokazo. Norvegiyalik neyrofiziologlarning tadqiqotiga ko'ra, katta farzandlarning IQ darajasi kichik farzandlarga qaraganda yuqori va ularning daromadlari bir foiz ko'proqligi ma'lum bo'lgan.

Odatda katta farzandlarga ko'proq mas'uliyat va javobgarlik yuklatiladi,

masalan, uka, singillariga qarash, uy ishlarida yordamlashish. Va ko'pincha "Sen kattasan, ukang o'ynasin", "Katta bolalar yig'lamaydi", "Doimo ukangga qarab yurishing kerak" kabi talablar qo'yilavermaydi. Aynan shu ta'kidlar to'ng'ich farzandning bolaligini to'laqonli his qilolmasligiga, doimo qolipda yurishiga sababchi bo'ladi va oqibatda o'ziga bo'lgan bahoning tushib ketishi va qiziqishlarning pasayishi kabi holatlar ham kuzatilishi mumkin.

O'rtancha

O'rtanchalar kenjaning ham, to'ng'ichning ham sifatlarini o'zida mujassam qilishi mumkin. Agar o'rtancha farzand oilada yolg'iz qiz yoki yolg'iz o'g'il bo'lmasa, e'tiborga, o'z o'rniga ega bo'lish uchun doimo kurashishga majbur bo'ladi. Bunday bolalar to'ng'ich farzanddagi obro', e'tiborga va kenja farzanddagi spontanlikka ega bo'lmaydi. Avstriyalik psixolog Alfred Adler ham oilada 2-farzand bo'lgan va shuni ta'kidlaganki, "Oilada ikkinchi farzand doimo ikki tomondan bosim his qilib yashaydi, ya'ni akasi yoki opasidan o'zib ketish va uka yoki singlisi unga yetib olishidan qo'rqish".

O'rtancha farzandlarda ijtimoiy ko'nikmalar kuchli rivojlangan bo'ladi. Ular turli toifadagi insonlar bilan tez muloqotga kirishuvchan va munosabat o'rnatishda o'rnatilgan egadir. Chunki ular hayoti davomida turli xarakterga ega bo'lgan aka-opalari va uka, singillari bilan munosabat o'rnatishga, ularni tushunishga harakat qiladilar. U bir vaqtda, opa, akalari uchun kichik, uka singillari uchun katta hisoblanadi. Shuning uchun ham o'rtancha farzandlar o'zining

aniq xarakter xususiyatini tushunishda, o'zini anglashda qiynaladilar. O'rtancha farzand to'ng'ich kabi ko'p e'tiborga ega bo'lmaydi va aksariyat hollarda otalar birinchi farzandini kutgani kabi ikkinchi farzandiga o'sha ishtiyoq, mehr-muhabbat bilan qaramaydi, ya'ni endi bolaning birinchi aytgan so'zi, emaklashi, ilk tashlagan qadami va boshqa xatti-harakatlari u darajada quvontiravermaydi va hayron qoldirmaydi.

O'rtancha farzandlar o'z individualligiga ega bo'lishda ko'pgina qiyinchiliklarga uchraydi, chunki oilada turli rollarda bo'lishiga to'g'ri keladi. Ya'ni, ayrim vaqtlarda uka yoki singil ro'lda o'zining kichikinaligini, himoyasiz, kuchsiz his etib, erkaliklar qilishi mumkin. Boshqa vaqtlarda esa aka yoki opa ro'lda kattaligini, javobgarlikni hamda o'zini kuchliroq, aqliroq his qilib yashaydi.

O'rtancha farzandlar mustaqil fikrlashda qiynaladilar va maqsadga erishish motivatsiyasi biroz past bo'ladi. Bu, ayniqsa, o'qishga nisbatan ko'proq namoyon bo'ladi. U to'ng'ich farzandning huquqlaridan va kenja farzandning imtiyozlaridan mahrum bo'lganligi uchun ko'pincha hayotning nohaqliklari, adoatsizligini his qilib yashaydi. Ko'pincha o'rtancha farzandlar introvert bo'ladi. Ular hamma bilan do'stona munosabat o'rnatishga harakat qiladi va muzokaralarda muvaffaqiyat qozona oladilar. Shuning uchun ham ular diplomat, kotiba, ofitsiant, sartaosh va boshqa muloqot bilan bog'liq kasblarni yaxshi egallaydilar.

Kenja

Odatda kenja farzandlar suyuqli, erkato'y, quvnoq va optimist bo'ladi. Avstriyalik psixolog, Zigmund Freydning shogirdi Alfred Adler kenja farzandlarning xarakter tipologiyasini izohlab bergan.

Kenja farzand asosan birinchi farzandga qaraganda tajribaliroq ota-ona bilan yashaydi. Farzandlar soni qanchalik ko'p bo'lsa, ota-onaning tajribasi shuncha oshib, xavotir darajasi pasayib boravermaydi. Endilikda ota-ona farzandini ko'p ham termayvermaydi va tezroq katta bo'lishini, kattalardek fikrlashi, qoshiqni

to'g'ri ushlashi va hokazolarni talab qilavermaydi, aksincha o'zini boladek his qilishiga, uzoq muddat o'z bolaligi bilan qolishiga ko'proq imkoniyat yaratib beradi.

Kenja farzand oilada o'ziga xos tarzda rivojlanadi, unga ko'p e'tibor qaratiladi va barcha oila a'zolari uning oldida javobgarlikni his qilib yashaydi. Shuning uchun ham ko'pincha kenja farzandlar biroz xudbin, izzatlash va ayyor bo'ladi. Ular doimo boshqalarning yordamini qabul qilishga tayyor bo'ladi. Oilada boshqa bolalarga qaraganda ularning ko'p xatolari kechiriladi va kenja farzand hayotdan faqat yaxshiliklar kutishga odatlanib qoladi. Natijada ular o'zlarining ommadliklari ishonchliklari uchun doimo optimizm ularga hamroh bo'ladi va buyuk optimistga aylanib qoladilar. O'z oilasi uchun ular doimo yosh bola bo'lib qolavermaydi va ota-onalar ham ularga nisbatan kamroq talabchan bo'ladi.

Kenja farzandning asosiy muammolaridan biri o'zini o'zi nazorat qilish va qaror qabul qilishdir. Chunki uning yonida doimo maslahat beradigan, to'g'ri yo'l ko'rsatadigan akasi, opasi yoki ota-onasi bo'ladi. Mashhur kishilarning ko'pchiligi asosan kenja farzand bo'lgan.

Aslini olganda yuqoridagi xarakteristikalar 100 foiz to'g'ri kelavermaydi, ya'ni bu ma'lumotlar statistika, ijtimoiy so'rovnomalarga asoslanib tahlil qilingan va tadqiqotchi olimlar tomonidan shunday xulosalarga kelingan. Lekin farzandning qanday voyaga yetishi, oiladagi muhitning sog'lom yoki nosog'lomligiga, mehr-oqibatning mavjud yoki mavjud emasligiga, ota-onaning bir-biriga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Maqolani o'qib bo'lganingizdan so'ng o'zingizning oilada nechanchi farzand ekanligingizni va berilgan ta'riflarni bir solishtirib ko'ring. Yoki farzandlaringizni kuzating. Agar yuqorida keltirilgan fikrlar to'g'ri bo'lsa, xursand bo'lamiz. Mavzuga oid e'tirozingiz yoki qo'shimchalaringiz bo'lsa ham tinglashga tayyormiz. Shu o'rinda ota-onalar bilan farzand tarbiyasida e'tibor qaratilishi kerak bo'lgan ba'zi foydali maslahatlarimizni o'rtoqlashmoqchi edik.

Ota-onalarga maslahatlar:

Hech qachon farzandlaringizni o'zaro va boshqa bolalar bilan solishtirmang (masalan, "Akangga o'xshamaysan", "Dugonang sendan ko'ra a'lo baholarga o'qiydi"...). Bunday vaziyatda bola o'sha insonga nisbatan nafratni his qila boshlaydi va o'ziga bahosi va ishonchi tushib ketadi. Farzandingizning yutuqlarini solishtiring (masalan: "Ko'rdingmi, kecha eplay olmagan eding, bugun esa qo'lingdan kelyapti, yana harakat qilaversang, ko'proq natijalarga erishasan").


Farzandingizga doimo quyidagi so'zlarni ta'kidlang: "Seni yaxshi ko'raman", "Sen uddalaysan, men senga ishonaman", "Sen sevimli", "Sen ommad", "Sen tirishqoqsan" va hokazolarni.

Har kuni farzandingizni bag'ringizga qattiq bosib yuzidan o'pib qo'ying.

Farzandingiz 10-11 yoshgacha hali bola ekanligini hisobga oling va bolaligini his qilishiga sharoit yaratib bering. Ya'ni, yoshiga mos o'yin, o'yinchoqlar o'ynashiga imkon yarating va uka yoki singillariga qarash javobgarligini to'liq yuklab qo'ymang.

Imkon qadar farzandingizga erkinliklar yaratib bering, o'zi xohlagan mashg'ulotlar bilan shug'ullanishiga, xohlagan to'garakka borishiga ruxsat bering.

Asolat AHMADQULOVA,
"Ma'rifat" muxbiri



Tabiat va biz

Suvni tejash — tabiatni asrashning asosiy omili

(Davomi. Boshi o'tgan sonda.)

Maishiy turmush, kundalik hayotda suvni tejashga odatlangandan so'ng yoshlarga qishloq va suv xo'jaligi kabi yirik tizimda suvni tejash bo'yicha ham tushunchalar berish zarur. Zero, bugungi kunda sarflanayotgan obihayotning asosiy qismi qishloq xo'jaligi, sug'orma dehqonchilik hissasiga to'g'ri keladi. Agrar, suv va qishloq xo'jaligi yo'nalishidagi o'rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida suvni tejash borasidagi chuqurlashtirilgan maxsus bilim va ko'nikmalarga ehtiyoj seziladi. Xususan, o'rganilishi lozim bo'lgan muhim va dolzarb mavzular ichida suvni tejash texnologiyalari alohida o'rin tutadi. Har qatrasini tillarga teng obihayotning behuda isrof bo'lishining oldini olishda zamonaviy suvni tejash texnologiyalari katta ahamiyatga ega. Shunday usullardan biri tomchilatib sug'orishdir. U ekinning ehtiyojiga mos miqdordagi suvni shlang yordamida bevosita ildiz qatlamiga yetkazib berishga mo'ljallangan muhandislik tizimi hisoblanadi.

usul keyinroq keng ommalashdi. AQSH, Hindiston, Avstraliya, Ispaniya, Isroil, Xitoy davlatlarining millionlab gektar ekin maydonlariga tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilgan. Bugun u meva, sabzavot yetishtirishdan tortib, ko'kalamzorlashtirish va hatto vertikal bog'larni sug'orishda ham keng qo'llanilmoqda. Natijada hosilni erta yetishtirish, tuproq eroziyasining oldini olish, kasallik va yovvoyi o'tlar o'sishini kamaytirishga erishilmoqda. Odatdagi sug'orish usullarining noqulayligi shundaki, dala tuprog'i sug'orishdan oldin haddan ziyod qurigan bo'lsa, keyin namlik keragidan ortib ketadi. Bu esa ekinlarning yaxshi o'sishiga yo'l bermaydi. Yangi usul yordamida ekinning ildiz qatlamida doimiy bir xil namlik ta'minlanadi, kerak paytda suv va oziq moddalar olish imkoniyati yaratiladi, hosildorlik oshadi.

Innovatsion usulning yana bir ustunligi shuki, suv butun dalaga emas, balki dalaning ekin yetishtiriladigan qismiga — ekinning ildiz qatlamiga yetkaziladi.

huda sarf bo'lmisligi tufayli katta miqdorda suv tejiladi. Eng muhimi, tomchilatib sug'orishda suv o'simlikka shlanglar vositasida yetkazib berilganligi uchun dala tuprog'i qotmaydi, natijada qator oralariga ishlov berishga ehtiyoj tug'ilmaydi. Tuprog'i qotmagan maydon esa mavsum oxirida sifatli va oson haydaladi. O'g'it suv bilan birga berilganligi bois, o'g'itlash uchun texnika ishlatishga ehtiyoj qolmaydi. Natijada mehnat kuchi va yonilg'i-moylash materiallari tejiladi. Dalada suvchilarning qo'l mehnati keskin kamayadi.

Bu yagona usul emas

Tomchilatib sug'orish suvni tejovchi yagona usul emas. Egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish, egatga plyonka to'shab sug'orish, yomg'irlatib sug'orish, tuproq ostidan sug'orish, namlik saqlovchi gidrogellarni qo'llash kabi suv isrofiga qarshi yana qator usullar mavjud. Hatto zamonaviy texnologiyalar mavjud bo'lmagan holatda egat tashlab (oralatib), qisqa egatlar orqali, o'zgaruv-

lib turadi. Suvga bo'kuvchan mazkur sintetik polimer tuproq tarkibida namlikni uzoq vaqt davomida saqlash imkoniyatini beradi. Gidrogel yomg'ir yoqqanida o'z og'irligidan 200—300 barobar ortiq suvni saqlab qolishi aniqlangan. Odatda 10 gramm polimer 2-4 litrgacha suvni saqlab qoladi.


Yangi, noodatiy usul va texnologiyalarning joriy etilishi soha mutaxassslaridan qaysi holatda, qanday sharoitda, qaysi ekin turida qanday suv tejovchi texnologiyani qo'llash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni talab etadi. Chunki ekinlar texnik (paxta, kanop), donli (arpa, bug'doy), ozuqabop (makkajo'xori, beda), poliz (qovun, tarvuz), sabzavot (pomidor, bodring, baqlajon), mevali bog' kabi turlarga bo'linadi. Har bir individual holatda ekinlarga mos sug'orish usul va texnologiyasi tanlanadi, unga ketadigan sarf-xarajalar hisob-kitob qilinadi. Suv tejovchi texnologiyalarni loyihalash, qurish uchun tegishli korxonalarga murojaat etiladi. Nazariy bilimlar orqali bu kabi amaliy kompetensiyani shakllantirib bo'lmaydi. Ko'p hollarda ish beruvchilar bitiruvchi yoshlarning o'z sohasi bo'yicha amaliy ko'nikmalarga ega emasligi, real ish sharoitiga moslasholmasligidan no'lishadi. Bu kabi holatlarning oldini olish uchun kasb-hunar va oliy ta'lim muassasalarida loyihalash, vaziyatli o'qitish usullarini keng joriy etish kerak. O'quvchi va talabalarga aniq vaziyat, muayyan obyekt taqdim etilib, shu vaziyat yechimi ustida ishlansa, maqsadga muvofiq. Masalan, Yuqori Chirchiq tumanining tegishli manzilida "Chandler" navli Kaliforniya pakana yong'og'i 15 gektar maydonga ekiladigan bo'lsa, bu yong'ozorni tomchilatib sug'orish tizimi loyihasi qanday yaratiladi, buning uchun qancha sarf-xarajat, qanday texnika va texnologiyalar zarur bo'ladi kabi.

O'quv jarayonida ko'makchi

Suv xo'jaligi vazirligi tomonidan "O'zbekistonda suv resurslarini boshqarish milliy loyihasi" doirasida ishlab chiqilgan "Tomchi" mobil ilovasi ham qishloq va suv xo'jaligi yo'nalishidagi fanlarni o'qitishda yordamchi bo'la oladi. Shveysariya taraqqiyot va hamkorlik agentligi tomonidan beg'araz moliyalashtirilgan mazkur ilovadan qishloq va suv xo'jaligi tarmoqlarida ishlayotgan mutaxassslar, tarmoq oliy o'quv yurtlarining talaba va professor-o'qituvchilari, qolaversa, keng jamoatchilik foydalanishi mumkin. Unda sug'orishdagi tejamkorlik usullari afzalliklari, ularni amaliyotga joriy etishning taxminiy bahosini hisoblash mumkin.

Soha mutaxassslarining suvni tejash borasida puxta va amaliy bilimlarga ega bo'lishi, tabiiy va moddiy resurslarni asrab-avaylashga uyq'oq vijdon bilan yondashishi, mehnatga unumdorlik, hosilga baraka beradi. Bu mamlakatimizning qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksport qilish salohiyatini yuksaltirish, aholiga qishloq xo'jaligi mahsulotlarini uzluksiz va arzon narxlarda yetkazib berishga imkon yaratadi. Uzoq safarga yo'l birinchi qadamdan boshlanganidek, tabiatni asrash, el dasturxonini to'kin qilish suvga bo'lgan ehtiyotkorona munosabatdan boshlanadi.

Sanobar JUMANOVA,
"Ma'rifat" muxbiri



Tomchilatib sug'orishning afzalligi nimada?

Ko'pchilik bu usulning qulayliklaridan to'la xabardor emas. Yangi texnologiyani joriy etish uchun hovuz-tindirgich, nasos qurilmasi, filtr, o'g'itlovchi moslama, bosh va tarqatuvchi quvurlar, ulovchi kran va fittinglar, tomizgichli shlang va tomizgichlar kerak bo'lgani uchun unga qimmat usul sifatida qaralar edi. So'nggi yillarda mamlakatimizda tomchilatib sug'orishni keng joriy etishga qaratilgan e'tibor natijasida bu usuldan foydalanayotganlarga qator imtiyozlar, subsidiyalar berildi, ma'lum muddatdacha yagona yer solig'i to'lashdan ozod etiladi. Bu yil respublikamiz bo'yicha 12 ming gektardan ziyod maydonda paxta yetishtirishda tomchilatib sug'orish texnologiyasi joriy etilmoqda.

Bu usul yuqori samaradorligi, suv resurslari cheklangan sharoitda kam suv sarflab barqaror hosil olish imkonini berishi bilan ajralib turadi. "Vikipediya" elektron qomusida berilishicha, o'tgan asrning 50-yillari ilk bor qo'llanilgan

Suv va oziq moddalar ekinning ehtiyojiga mos ravishda kam miqdorda tez-tez beriladi. Bunda suv bilan birga oziq moddalar ham eritilgan holatda quyiladi. Natijada kam suv sarflash evaziga dalaning barcha qismidan bir xil hosil olinadi. Boshqa sug'orish usullaridan farqli o'laroq, tomchilatib sug'orishda ekinning ildizi rivojlanadigan tuproq qatlamida o'simlik uchun maqbul bo'lgan suv-fizik muhit yaratiladi. O'simlik o'z quvvatini to'lafigicha o'sib-rivojlanish va hosilini ko'paytirishga yo'naltiradi. Ehtimol, ko'pchilik bu haqida bilmas: an'anaviy sug'orish usullarida sug'orishdan oldin suvsizlik, sug'orilgandan keyin ortiqcha namgarchilik sababli o'simliklar "stress holati"ga tushadi va bu holatdan chiqish uchun energiya sarflaydi. Bu holatga barham berish orqali hosildorlik bog' va tokzorlarda 40, paxta va sabzavot paykallarida 60 foizgacha ortadi.

Agro.uz saytida berilishicha, tomchilatib sug'orishda rejimning o'ziga xosligi, bug'lanishning pastligi, obihayotning be-

chan oqim bilan diskret (to'xtab-to'xtab) sug'orish usullaridan ham foydalanish mumkin. Avval bitta dalaga, keyin esa boshqasiga navbatma-navbat oqizilishi natijasida kanaldagi suv sarfi 10—20, dala o'qariqlaridagi suv sarfi esa 30—35 foizgacha kamayadi.

Usullarning ba'zilari qadimdan dehqonchilikda keng qo'llab kelinayotgan bo'lsa, ba'zilari tabiatdagi hodisalar asosida o'ylab topilgan. Masalan, yomg'irlatib sug'orishda sun'iy yomg'ir hosil qilinadi. Bunda yomg'irning yog'ish tezligi sug'orilayotgan dala tuprog'ining suv shimish salohiyatidan kamroq yoki unga teng bo'lishi kerak. Tomchilar qanchalik mayda bo'lsa, sug'orish shuncha sifatli bo'ladi, ko'imaklar yuzaga kelmaydi, tuproq qotib qolmaydi. Tuproq ichidan sug'orishda tuproq ostida joylashtirilgan quvur va shlanglar yordamida ekinning ildiz qismiga suv yetkazib beriladi.

Namlik saqlovchi gidrogel qo'llash ham qulayligi va tejamkorligi bilan ajra-

Bir lahzalik huzur-halovat keltiradi faqat musibat

Tamaki insonni halok qiluvchi nopok va zararli vositadir. Uning asorati birdan emas, balki asta-sekin, yillar o'tib namoyon bo'ladi. Uning isrofchiligi yana ham xavotir uyg'otadi: har kuni o'rtacha bir quti tamaki chekish bir yarim soat vaqtini oladi. Bu hisob bir yilda 23 kunni, 16 yilda esa to'liq bir yilni tashkil etadi. Bu umrni, vaqtini isrof qilish emasmi? Shu sababli mo'jazgina Daniya davlatida tamaki chekilgan vaqt uchun ish haqi chegirib qolinar ekan.

O'rtacha narxdagi sigaret chekuvchi inson bir yilda 1,5-2 million so'm, hatto undan ham ko'proq pul sarflaydi. Bu na-faqat pulni behuda sarflash, balki vaqtni, sog'liqni ham uvol qilishdir. Tamaki o'rash uchun eng sifatli qog'oz ishlatiladi. Agar bu qog'oz kitob bosishga sarf qilinsa, ancha-muncha kitob nashrdan chiqqan bo'lar edi. Kashandaning umr bo'yi chekkan tamakisi qog'oziga 300 ming sahifalik kitob bosish mumkin ekan.

Tamaki tarkibidagi nikotin moddasi boshni aylantiradi, chekuvchi bundan kayf oladi, bu modda uni xumor qilishga o'rgatib qo'yadi. Mutaxassislar kashandalik ham o'ziga, ham o'ziga zarar yetkazishini ta'kidlaydilar. Tamaki tutuni tarkibida 4000 ga yaqin zararli modda bo'lib, birortasi foydali emas. Buni raqamlar bilan asoslaymiz. Kashandaning bolasi bir yilda taxminan 80-90 quti tamaki chekkandek zaharlanadi. Tamaki chekilgan joyda o'tirgan chekmaydigan kishining qonida nikotin miqdori yetti barobar ortadi. Bir marta tamaki tutunini puflash atrofida 70 milligramm kukun, 25 milligramm karbohidrat bilan zaharlaydi. Kashandalik natijasida kelib chiqadigan kasalliklar tufayli jahonda har yili 5 milliondan ortiq odam vafot etmoqda. Bu har sakkiz soniyada tamaki chekish tufayli bir odam vafot etadi, deganidir. O'lim hodisasi chekmaydiganlarga nisbatan kashandalarda orasida uch marta ko'p sodir bo'lar ekan.

Tibbiy tadqiqotlarda tamaki davosi yo'q 14 ta kasallikning kelib chiqishi-ga sabab bo'lishi aniqlangan. Jumladan, o'pka va bronxlarda paydo bo'ladigan kasalliklarning 92, oyoq tomirlari devorining qalinlashib, torayib, qon aylanmay qolishi natijasida kelib chiqadigan oyoq panjalari qorason kasalligining 95, oshqozon osti bezi rakining 72, qovuq rakining 70 foizini bevosita kashandalik bilan bog'lash mumkin. Bundan tashqari, tamaki chekish yurak infarkti, gipertoniya, o'pka sili kasalliklarini keltirib chiqaruvchi omil ekanligi allaqachon isbotlangan.

Tamaki tutuni nafas yo'llari orqali o'taverganidan burun, halqum, hiquldoq, traxeya, bronx va o'pka shilliq pardasida yallig'lanish vujudga keladi. Aniqlanishicha, bir dona tamaki oxirigacha chekilganida, 5 litr tutun hosil bo'ladi. Uning bir kvadrat-santimetrida 6000 dona qora qurum, 6000 dona qoramoy tomchisi saqlanadi. Buni 5 litrga ko'paytirsak, million-million qora qurum va qoramoy tomchilari mavjud ekanligi oydinlashadi.

Kashanda bir dona tamakini o'rtacha hisobda 15 marta tortib, tutunini o'pkasiga

yutadi. Agar u bir kunda 20 dona tamaki cheksa, bir yilda 109 500 marta o'pkasiga tutun yutib, nafas olishni ta'minlaydigan asosiy a'zosini zaharlaydi. Yigirma dona tamaki chekilganda, yarim litr is gazi yutiladi. Qon tomirlari devori orasiga qon quyilishi sababli, hujayralar kuchsizlanadi. Bu holat asosan oyoq tomirlarida kuzatiladi. Natijada tomirlar torayib, oyoq mushaklarining qon bilan ta'minlanishi yomonlashadi. Bu avval panjalarda, so'ngra uning yuqori qismlarida qon aylanishi batamom to'xtashiga olib keladi. Bilingki, bu tananing o'sha joylarida qorason (chirish) boshlanganidan dalolatdir. Buni tibbiyotda jarrohlik yo'li bilanagina bartaraf etish mumkin.

Tamaki tutuni tarkibidagi zaharli moddalar ta'sirida o'pka himoyachi hujayralari halok bo'ladi. Kanserogen — saraton kasalligini qo'zg'atuvchi modda, radioaktiv poloniy, vismut va qo'rg'oshin kabi moddalar o'pkada yig'ilib, saraton hujayralari uchun qulay shart-sharoit tug'diradi. Bu kasalliklar birdan paydo bo'lmaydi, albatta. Tamaki cheka boshlagan kishi 10-15 yil o'tib, organizmi tutun tarkibidagi ko'plab zaharli moddalar bilan kurashayotganini sezadi. Ammo bu paytda chekuvchining yoshi 40 lardan oshib qolgan bo'ladi, endi u chekishni tashlay olarmikan?

Olimlar haqiqatan ham tamaki tutunidan saraton paydo bo'lishini isbotlaganlar. Sigaretning shuncha zarari bor ekan, nima uchun chekishadi, degan savol tug'iladi. Kashandalardan buning sababini so'rasangiz, asablarim tinchlanadi, charchog'im chiqqandek bo'ladi, deya o'z "aybi"ni xaspo'shlaysi. Ammo bir nafaslik huzur-halovat uchun bir umrlik azob-uqubat o'tirtirish ne darkor?

O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan chekish inson salomatligi uchun katta zarar yetkazishi xususida targ'ibot-tashviqot ishlari olib borilayotganini qo'llab-quvvatlash kerak. Jamoat joylari — transport, savdo do'konlari, davaloh muassasalarida kashandalikning inson umrini qisqartiruvchi illat ekanligini anglatuvchi e'lonlar qanchalik ko'p osilishiga qaramay, atro-fimizda chekuvchilar yetarlicha topiladi. Fikrimizcha, eng katta profilaktik tadbirni umumta'lim maktablaridan boshlash zarur. Chunki o'smirlik davrida sigaretni bir marta og'ziga olgan o'quvchi bora-bora kashandalik illatiga o'rallashib qoladi. Farzandi sog'lom bo'lib ulg'ayishini istagan ota-ona hech qachon uning yonida chekmasin. Bu talab muhtaram pedagog-murabbiylarga ham tegishlidir.

Odilxon qori YUNUSXON o'g'li

Xalqimizda yetti raqamiga alohida e'tibor bilan yondashish bor. Insonlar o'zi uchun muqaddas sanalgan narsalarni yetti soni bilan raqamlaydilar. Masalan, yetti qavat osmon, yetti qadam, yetti xazina va boshqalar. Bugun shunday yettiliklardan biri — yetti xazina haqida fikrlashsak. Nima uchun aynan yetti xazina deyiladi? Xalqimizda tovuq yetti xazinaning biri deyiladi. Xo'sh, yetti xazinaning qolgan oltitasi nima ekan? Bilmaysizmi? Unda eshitng: asalari, sigir, ipak qurti, objuvoz, tegirmon, o'rmon. Bular birgalikda jami yetti xazina hisoblanadi.

Yetti xazina

Ushbular biz uchun nega xazina deyiladi, hayotimizdagi o'rni qanday? Masalan, asalarini oladigan bo'lsak, u oilaning tabiibi hisoblanarkan. U yetishtirib beradigan asal bebaho ne'matdir. Bir tomchi asalda odam organizmi uchun nihoyatda muhim bo'lgan 70 dan ortiq modda bor. Asosiy tarkibiy qismi uglevod, glyukoza, va fruktozalardan iborat. Oddiy qandga qaraganda asalni organizm ancha yengil singdirib, muskul kuchi saqlanishiga, bekam-u ko'st o'sishiga yordam beradi. Bu esa, ayniqsa, yosh bolalar uchun muhim. Shuningdek, asal moddalar almashinuvida ham katta ahamiyatga ega. Uning tarkibidagi oqsillar gormonlar hosil bo'lishida qatnashadi. Asal yuragi xasta odamlarga ayniqsa foydali. Agar bunday bemor 1-2 oy davomida har kuni 50 gramdan asal yeb tursa, ahvolidagi sezilarli ijobiy o'zgarish bo'ladi. Shuningdek, u me'daning eng yaxshi do'stidir. O'pkani balg'amdan tozalash, jigar va o't yo'llari kasalliklarida asalni limon sharbati va zaytun moyi bilan qo'shib iste'mol qilish foydali. Asalni me'yori bilan yeb turish umrni uzaytiradi, immunitetni oshiradi. Lekin uni iste'mol qilishda ehtiyot bo'lmoq kerak, haddan ziyod ko'p yeyilganda turli ko'ngilsiz holatlar, masalan, badanda qichishish, bosh og'rig'i, ich ketish hollari kuzatiladi ("Asalning ham ozi shirin" degan maqol bejiz aytilmagan-da). Umuman olganda, asal koni foyda, uni faqat iste'mol qilib emas, balki asalari boqib, asalini sotib ham foyda ko'rish mumkin. Shuning uchun ham u yetti xazinaning biri deb hisoblanadi.

Sigir oilaning baqqoli hisoblanarkan. Bunday deyilishiga sabab u oilaning go'sht va sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini qondiradi. Shu bilan birga oilaning boshqa zaruri mahsulotlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishda

ham muhim, ya'ni sigirdan olinadigan mahsulotlarni ayirboshlash, sotish orqali ham ro'zg'orni to'kis qilish mumkin. Yetti xazinaning yana biri hisoblangan ipak qurti va uning pillasidan olinadigan ipakni ajdodlarimiz qizlarning sepi, deb hisoblashgan. Pilladan olinadigan ipakdan to'qilgan matoning qadri va qiymati balandligidan shunday atashgan bo'lsa kerak. Bugungi kunda ham ipak matolaridan to'qilgan atlas, adras va beqasam faqatgina yurtimizda emas, balki jahonda ham o'z qiymatiga ega. Bundan tashqari, tabiiy va sog'lik uchun foydali bo'lgan bu matoning ipagini yetishtirib beradigan ipak qurti yetti xazinaning biri deb bejiz aytilmagan bo'lsa kerak.

Objuvozning bugungi hayotimizda o'rni bo'lmasa ham, o'z vaqtida zig'ir, paxta yog'larini olishda odamlarning eng zaruriy anjomi bo'lgani aniq. Chunki yashash uchun ovqat yeyish kerak. Ovqat qilish uchun esa yog' zarur.

Tegirmon ham xuddi objuvoz singari iste'moldan qolgan, lekin hozir ham chekka-chekka tumanlarda odamlar hali-hanuz tegirmon xizmatidan foydalanib turishadi. Gap shundaki, tegirmon uni donning kepagini ko'proq saqlab qolishi va shuning natijasida foydali un chiqarishi bilan ahamiyatlidir.

O'rmon yetti xazinaning biri deb hisoblanishini daraxtlarning inson hayotidagi ahamiyati bilan bog'lab tushunish mumkin. Yashash uchun eng muhim bo'lgan uy-joy qurishda yog'ch asosiy qurilish material hisoblanadi. Qurb qolgan daraxtdan o'choqqa o'tin tayyorlangan.

O'ylab qarasangiz, xalqning har bir gapi donishmandlikka asoslangan. Yuqorida keltirib o'tganimiz, yetti xazina haqidagi fikrlar ham bunga misol bo'la oladi. Bu haqda sizda qanday fikrlar bor? Yozing, o'rtoqlashamiz.

Asolat AHMADQULOVA,
"Ma'rifat" muxbiri

Reklama va e'lonlar

Umirov Farxod Ergashovichning 02.00.13 — Noorganik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi bo'yicha "Tarkibida fiziologik aktiv moddalar tutgan kompleks samarali defoliantlar olish texnologiyasini ishlab chiqish" mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi O'zR FA Umumiy va noorganik kimyo instituti va Toshkent kimyo-texnologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.K/T.35.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 2-avgust kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100170, Toshkent shahri, Mirzo Ulug'bek ko'chasi, 77-"A" uy.
Tel/faks: (71) 262-56-60, 262-79-90; e-mail: ionxanru@mail.ru

Muratkasimov Alisher Sattarovichning 06.01.03 — Agrotuproqshunoslik va agrofizika ixtisosligi bo'yicha "Lalmi tipik bo'z tuproqlarning hozirgi holati va ulardan samarali foydalanish yo'llari (G'allaorol tumani tuproqlari misolida)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx/B.43.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 19-avgust kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy.
Tel/faks: (71) 246-09-50, 246-76-00; e-mail: info@soil.uz

Xaitbayeva Jamilya Umarovnaning 06.01.04 — Agrokimyo ixtisosligi bo'yicha "Barg tashxisi asosida kuzgi bug'doyini azotli o'g'itlash me'yorlarini asoslash (Xorazm viloyatining sug'oriladigan o'loqi allyuvial tuproqlari sharoitida)" mavzusidagi (qishloq xo'jaligi fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.27.06.2017.Qx/B.43.01 raqamli ilmiy kengashning 2019-yil 19-avgust kuni soat 10:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100179, Toshkent shahri, Olmazor tumani, Qamarniso ko'chasi, 3-uy.
Tel/faks: (71) 246-09-50, 246-76-00; e-mail: info@soil.uz

Gurung

“Birlik ko'nglingdagi tushunchangda!”

ABAY

Dilorom bilan kitobiy muomala

Ozoqlarda: “Hunarning boshi birlikda, rizqning boshi tiriklikda” degan maqol bor. Ammo ular bunday birlik qanday elda qanday yuzaga keladi — buni bilishmaydi. Ular ot o'rtada, osh o'rtada, kiyim o'rtada, boylik o'rtada bo'lsa ekan, deb o'ylashadi. Unday bo'lsa — boylikdan nima foyda-yu, kambag'allikdan nima ziyon?

Unday bo'lsa — oshna-og'ayning yo'qolmay turib, mol topishning nima keragi bor? Shumi birlik? Yo'q! Birlik qo'rangdagi molda emas, tushunchangda bo'lishi kerak. Mol bersang otasi boshqa, onasi boshqa, dini boshqa, tirikchiligi boshqalar ham sen bilan tinch-totuv bo'laveradi. Agar birlik mana shunday hisob bilan o'lgansa, ya'ni molga sotib olinsa, bu birlik birlik emas, ablahlikdir! Do'st bo'laman degan kishi ber demasdan do'st bo'lsa, tinch-totuv yashasa, tuz-nasibasini Xudodan tilasa yaxshi bo'ladi. Aks holda, tuz-nasibasini Xudodan tilamaydi, mehnat qilmaydi

va bir-biriga balo izlaydi, bir-birini aldashning payiga tushadi. Xo'sh, shu ham birlik bo'ldimi endi?

“Rizq — tiriklikda” deyishadi. Bu nima degani? Demak, tanangda joning bo'lsa — tiriklik shumi? Yo'q. Bunaqa tiriklik itda ham bor. Tiriklikni shunday deb tushunib, shu tushuncha bilan yashagan odam o'limni yot ko'rib, oxiratga dushman bo'ladi. O'z joninigina himoya qilib, yov tegsa qochib, qo'rqqoq atalib, mehnat qilishdan bosh tortib, erinchoqlik qilib, maxsumcha bo'lib yurish, bu ham yuqorida aytilgan rizqqa nis-

batan nonko'rlik qilishdir. Tiriklikni bunday tushunish yaramaydi; o'zing tirik bo'lganing bilan ko'ngling, ko'kraging o'lik bo'lsa, bu tiriklik — tiriklik emas, albat; o'zing tirik bo'lsang-u, ko'kraging o'lik bo'lsa — aql topsang, mol topmaysan, mol topsang, aql topmaysan. Halol mehnating bilan erinchoqlik qilmay mol topish uchun g'ayrat qilolmaysan.

Ish vaqtda ayyor, osh vaqtda tayyor bo'lib, sirtning yaltirab, iching qaltirab yurib, tirikman, degandan ko'ra — bundan Xudo yuborgan halol o'lim ming marta afzal.

Shamol bobo

O'tgan qadim zamonlarda uch aka-uka bo'lgan ekan. Ular birga o'sib, birga yashab voyaga yetishibdi. Otalari uylantirib, bola-chaqali qilgach, ulardan biri — to'ng'ich o'g'il o'zini dehqonchilikka uribdi. Don ekib, katta-katta xirmon ko'tarib, kundan kunga boyib ketaveribdi. O'rtancha o'g'il o'zini mol-qo'yga uribdi. Kundan kun tuyog'i ko'payib, qo'rasi oshib, bu ham boy-u badavlat bo'laveribdi.

Kenja o'g'il bo'lsa, o'ziga kosiblikni tanlab, bu ham kasb-hunar orqasidan boyib, pir-u badavlat kishiga aylanibdi. Aka-ukalarning ahil-inoq yashashlarini aytmay-sizmi! Bir-birlariga juda mehribon bo'lib, bordi-keldini sira uzishmas, bir-birlarini siylab mehmon qilisharkan. Hammaning havasi kelarmish. Ota-onalari, bolalarimiz yaxshi o'sdi, ahil yashashyapti, deb xursand bo'lishibdi. Keyin birin-ketin olamdan o'tishibdi. Aka-ukalar endi tag'inam ahil bo'laylik, deb bir-birlarinikiga to'ppa-to'g'ri, osongina borib keladigan yo'l ochishibdi. Har kuni bir-birlariga osh chiqarib, non uzatib yashashibdi. Baraka ustiga baraka kirib, bir-biridan boyib, oshib-toshib ketaverishibdi.

Kunlardan bir kuni nima bo'libdi-yu, uch aka-ukaning bolalari nimanidir talashib urishib qolishibdi. “Bolalar urishsa birpasda yarashib olishar”, demasdan uch ovsin aralashdimi, ish chatoq bo'lishi turgan gap. Katta kelin u desa, kichigi bu debdi, o'rtancha kelin “a” desa, katta kelin “be” debdi. Bo'pti urish, bo'pti janjal. Janjalni boshlab bergan bolalar bir yoqda qolib, kelinlar shunaqangi urishib ketishibdiki, ularning baqir-chaqiridan yetti mahalla naridagi kishilarning qulog'i batangga kelibdi. Kelinlar janjaliga aka-ukalar qo'shilib ketishibdi. Bo'pti jang-suron, bo'pti jang-suron... Aka-ukalar ajralishib, bir-biriga dushman bo'lib qolishibdi.

Bundan Shamol bobo ham xabar topibdi. Aslida Shamol bobo to'polonlar, bo'ronlarning otasi bo'lib, qayerda janjal bo'lsa yetib borar ekan. U aka-ukalarning janjalini eshitib, o'zining kulbasi — g'ordan chiqibdi-da, yo'lga tushibdi. Yo'lda Adovatni ko'rib qolib:

— Senga ish topildi. Tez bo'l, aka-ukalarnikiga boramiz. Janjal-to'polon boshlanibdi, sen borib uni kuchaytirasan, — debdi. Shamol bobo Adovatni yoniga olib ketayotgan ekan, yo'ldan G'azab chiqib qolibdi. Shamol unga qarab:

— G'azab, tez bo'l! Aka-uka janjallashib qolibdi.



Senga ham ish topildi. Ular o'rtasiga tushib, bir-biriga toshday otilaverasan, — debdi. G'azab ularga qo'shilibdi. Uchovlon — Shamol bobo, Adovat va G'azab ketaveribdi. Yo'lda Ajal chiqib qolib:

— Ha, qayerga ketyapsizlar? — deb so'rabdi.

— Aka-ukalar urishib qolishibdi, yaxshisi sen ham yur. Ularni qa'ringa tortasan, — debdi Shamol bobo. To'rtovlon aka-ukalar urishayotgan joyga yetib boribdi. Aka-ukalar endi tinchishay desa, Shamol bobo Adovatni yuboribdi. Adovat bir dumalab, badbashara bo'lib olib, kenjaning yuziga qo'nibdi. To'ng'ich va o'rtancha aka ukasining yuzidagi badbashara Adovatni ko'rib, janjallasha-janjallasha endi tinchishgan ekan, Shamol bobo G'azabni yuboribdi. G'azab bir dumalab qahrli badbasharaga aylanib, katta akaning yelkasiga qo'nibdi. O'rtancha o'g'il bilan kenja o'g'il akadagi G'azabni ko'rib, yana janjalni boshlab yuborishibdi. Shunday qilib, Shamol bobo goh G'azabni, goh Adovatni har xil qiyofaga kiritib yuborib, aka-uka, kelin-ovsinlarni urishtiraveribdi-urishtiraveribdi. Borib-borib aka-ukalar ham, kelin-ovsinlar ham holdan toyishib, bir-birlarini qip-qizil qonga belashibdi. Shamol bobo Ajalga qarab:

— Endi sen bor-da, ularni adoyi tamom qil, — debdi.

Ajal borib ularni birin-ketin o'z komiga yutibdi. Keyin Shamol bobo kuchli chang-to'zonga aylanib, ularning uylarini tuproq bilan ko'mib yuboribdi. Oqibatda aka-ukalarning uylari o'rinda uchta tepalik paydo bo'libdi.

Shu-shu, odamlar bu tepaliklarni o'zlaricha “Janjaltepa”, “Adovattepa”, “Ajaltepa” deb aytadigan bo'lishibdi.

Bir kuni Husayn Boyqaroga chaqimchilar kelib:

— Taqsir, siz Navoiyni bir so'zli, to'g'ri odam deb o'zingizga yaqin tutib yurasiz. Holbuki, Navoiyning buzuq odamligini bilmaysiz, nimaga desangiz, u hujrasining orqasida bir to'da ayollarning turishiga yo'l qo'ygan, bunisi ozlik qilganday, o'sha qiz-u juvonlar turgan hovliga hujrasidan darcha ochib, har kuni bazm-u aysh qilib yuribdi. Agar ishonmasangiz, o'zingiz tekshirib ko'ring, — dedilar. Navoiyning hujrasi Ko'shk darvozasi tagida ekan. Kechasi allamahalda Husayn Boyqaro Navoiyni sinab ko'rmoq uchun posbon kiyimini kiyib, Navoiy turgan hujraga borib, hujra eshigining shanglog'idan ongnib qarabdi. Qarasa, Navoiyning hujrasining narigi tarafida chindanam daricha bor emish, darichadan bir manzara ko'rinish, ul manzarada bir suluv parivash o'tirgan emish, bu yoqda Navoiy kitob yozib yotgan emish, bir mahal Alisher Navoiy xatdan boshini ko'tarib, o'sha parivash ko'rinish turgan darichaga qarab tikilib turib, shu so'zni aytibdi:

Men Hiri shahrida ko'rdim bir jonon manzari,

Manzar ichra o'tlurubdir hur yangliq bir pari.

Keyin o'sha yoqqa qo'lini uzatib xayol surib, aytibdi:

Turdim-u endim yoniga, bo'ymiga soldim qo'tim,

Ishva-yu noz-u karashma birla aytur: —

Ket nari.

Parivash Navoiyga qarab aytar emish:

Dastlari choqli bo'lg'onlar yetolmaylar menga,

Sen kimi jononidirsan yoki zangi korgari.

Shunda Alisher Navoiy bir tugunchak pulni ul parivashga ko'rsatib shunday der emish:

Ming tumanga arziyurmu bir kishining qimmatini.

Navoiyga ul parivash javob berib, aytar emish:

Senda zar bo'lsa olib ketgil, yigit sen yo qari?

Alisher Navoiy aytar emish:

Kim Hiri shahrida borsa ul diramsiz bormasun,

Bediramga bermaslar yo'l ul Hirining xublari.

Ey Navoiy, sen g'animat bil Xuroson xublarin,

Qadri zar zargar bilur, qadri javhar javhari.

Bu hangomalarni eshitib, Husayn Boyqaro yotoq joyiga qaytib ketibdi. Ertasi yasovullariga Navoiyni keltirishni buyuribdi, yasovullar hademay Navoiyni tolib kelibdilar. Shunda Husayn Boyqaro Navoiyga qarab:

— Siz avvallari hammamizga tozasinib nasihat qilib yurar edingiz, endi bo'lsa, o'zingiz qo'lga tushdingiz, nimaga deganda, men shu kecha sizning bir nomahram bilan so'zlashib turganingizni ko'rdim, — debdi.

— Men bu vaqtlarda shoh Bahrom bilan Diloromni yozib yuribman. Diloromni ko'rmasdan maqtat qog'ozga ko'chirsam g'alat bo'lmasin, deb ruhini ko'shki bilan devorga keltirib qo'yaman. Sizning ko'zingizga ko'rgan o'sha Dilorom bilan mening kitobiy muomalam, — deb javob beribdi.

Husayn Boyqaro Alisher Navoiyga tahsin-ofarinq aytib, gunohkor qilaman deganiga uyalib qolibdi.

Bolalar futboli shunday bo'lsa...

"Nasaf" professional futbol klubiga qarashli Nishon tumanidagi bolalar va o'smirlar futbol maktabi faoliyatiga bir nazar

Futbol — millionlar o'yini. Eng ommaviy sport turlaridan biri. Biror kishi yo'qki bolaligida ko'cha changitib koptok tepmagan bo'lsa. Sezgan bo'lsangiz, mavsumiz futbol, ya'ni bolalar futboli xususida.

Nishon tumanidagi bolalar va o'smirlar futbol maktabi bir necha yildirki bolalar o'rtasida futbolni ommalashtirishga hissa qo'shib kelmoqda. Bu maktabda futbol sirlaridan voqif bo'lgan yoshlar orasida katta futbolga qadam qo'yganlari ham ko'p. Ammo, afsuski, futbol maktabining bugungi ahvoli qoniqlik darajada emas.

O'rinbosar to'yda ekan...

"Nasaf" PFKga qarashli Nishon tuman bolalar va o'smirlar futbol maktabi deya yozib qo'yilgan bino tomon qadam tashlarkanmiz, soat 14 dan 47 daqiqa

ogohlantirdimi yoki ish vaqti shu payt boshlanadimi, birin-ketin murabbiylar ko'rinish berdi.

— Ayni paytda maktabimizda 8 nafar murabbiy faoliyat yuritadi, — dedi Zafar Yazdonov. — Futbol mashg'ulotlariga 404 nafar bola jalb etilgan. Ular ertalab va kechki payt mashg'ulotlar olib borishadi. Tumandagi yettita hududda to'garak tashkil qilganmiz. Shular orasida maktabimizga qarashli uchta hududda — "Baynalmilal", "Ulug'bek" mahalla fuqarolar yig'ini hamda maktabimizda futbol maydonlari mavjud.

Dorisi yo'q doktor

Prezidentimiz tashabbusi bilan bugun mamlakatimizda keng isloh qilinayotgan sohalaridan biri bu — tibbiyot. Joylarda tibbiy xizmat ko'rsatishga, soha xodimlariga ham katta e'tibor



o'tganiga qaramay biror kishini uchratmadik. Kirish eshigi oldidagi xonada kimdir dam olayotgan ekan. UZR so'rab uni uyg'otib, biror mas'ul xodim bilan uchrashtirishini so'radik.

U "Hozir direktor o'rinbosarini uyidan chaqirib kelaman", deya shoshilib chiqib ketdi. Chamasi yarim soatdan keyin o'zini uslubchi deb tanishtirib Yuriy Tlyabov keldi. Bu kishi ham salom-alikdan so'ng maktab rahbarini qidirishga tushdi. Telefon orqali ancha qidirishlardan so'ng futbol maktabi direktori Zafar Yazdonov ham nihoyat yetib keldi.

"Keling, biroz tobim yo'q edi. Tabibga boruvdim, ushlanib qoldim", deya izoh berdi direktor. Futbol maktabining bugungi faoliyati, ayni paytda qilinayotgan ishlar, mashg'ulotlar haqida so'ralkanmiz, Zafar Yazdonov "Barcha hujjatlarimiz o'rinbosarim O'tkir Shoimqulovda. Hozir u kishini chaqiraman", deya biroz vaqt o'tib ajablanarli javob berdi. "O'tkir Shoimqulov bugun Qamashi tumaniga to'yga ketgan ekan". Ana xolos, direktorning bundan xabari yo'q...

Soat 16 dan o'ta boshlagach, kimdir

qaratilayotgani hech kimga sir emas. Ammo, ming afsuski, ushbu futbol maktabi tibbiyot xodimi uchun yaratilgan sharoitlar faqatgina achinishga arziydi, xolos. Nega deysizmi? Tibbiyot xodimi Jasur Ibragimovning aytishicha, o'z mablag'i hisobidan sotib olgan dori-darmonlari "kattagina" sumkasida bor-yo'g'i uch dona dori va bitta bintdan iborat. Mana sizga 400 dan ortiq bolaga tibbiy yordam ko'rsatadigan xodimning ish tartibi.

— Maktabda qancha o'quvchi bor?

— deya Jasur Ibragimovdan so'raymiz.

— Taxminan 356 nafar bo'lsa kerak...

— Aniq bilmaysizmi?

— Yo'q.


— Nega?

— ...

— Bolalarga zarur payti birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda bu uch dona doringiz yetarliymi?

— Albatta yetmaydi.

Direktor dori-darmonga ajratilgan pullarni tuman moliya bo'limi o'z vaqtida futbol maktabi hisobraqamiga o'tkazib bermayotganini vaj qilib ko'rsatishdan nariga o'tmadi.



— Dori-darmonga pul ajratilmaydimi?

— Bilmadim, direktor biladi. Shuni ham o'z hisobimdan sotib olganman.

Direktor dori-darmonga ajratilgan pullarni tuman moliya bo'limi o'z vaqtida futbol maktabi hisobraqamiga o'tkazib bermayotganini vaj qilib ko'rsatishdan nariga o'tmadi.

Tibbiyot xonasida dori-darmonlar uchun muzlatkich, shkaf yoki maxsus yashiklar, patronaj sumkasi ham yo'q. Sportchilarga kerakli payti qay yo'sinda tibbiy yordam ko'rsatilmoqda? Bu savolimiz ochiq qoldi.

Yantoqzormi, futbol maydoni?

Futbol maktabiga qarashli "Baynalmilal" mahallasida joylashgan stadion tomon yo'l oldik. U yerga borib rosti maydonning xarob ahvoldaligi-yu qarovsizligidan yoqa ushladik. Bu o'yin-gohga yaqin orada bolalar qadami tegmaganiga qovjiragan o't-o'lanlar, bo'y ko'rsatayotgan yantoqlar "guvohlik" berib turardi. Eng ajablanarlisi, bu o'yin-goh 1-sektor, ya'ni tuman hokimi sektori shtabi va mahalla idorasi biqinida joylashgan.

Bu holatga maktab direktoridan izoh so'radik. U esa jim turishni ma'qul ko'rdi. 1-sektor kotibi Sherzod Kenjayev mahalla hududida o'yin-goh borligini birinchi marta eshitayotganini ochiq-oydin tan oldi.

Jadval bo'yicha mashg'ulot boshlandi, amalda-chi?

Maktab rahbariyati bergan mashg'ulotlar jadvali bo'yicha tumandagi "Ulug'bek" MFY hududidagi futbol maydoni tomon yo'l oldik. Bu joy ham yantoqzorga aylanib ulgurgan. O'yin-gohda ikki nafargina bolani uchratib, suhbatga chorladik.

— Har kuni shug'ullanasizlarmi?

— Ha.

— Nega bola kam?

— Bilmadik.

Biroz o'tib bir talay qog'ozni qo'ltiqlab murabbiy Shahzod Xoliqov keldi. Mashg'ulotlar jadvaliga ko'z yuritirarkanmiz, belgilangan vaqt o'tib borayotgan bo'lsa-da, ikki nafar boladan boshqa hech kim kelmadi.

Mas'ullar nima deydi?

Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 31-yanvardagi "Futbol bo'yicha bolalar-o'smirlar sport maktablarining faoliyatini rag'batlantirish va uning moddiy-texnika bazasini yaxshilash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaroriga asosan viloyatdagi uchta — Shahrisabz, Kasbi, Nishon tumanidagi bolalar va o'smirlar futbol maktablari "Sho'rtan", "Mash'al", "Nasaf" klublariga birlashtirilgan.

Nishon tuman bolalar futbol maktabi viloyatning bosh jamoasi — "Nasaf" PFKga birlashtirilgan. Xo'sh, bu borada mas'ullar fikri qanday? Dastlab Nishon tuman hokimining yoshlar siyosati va ma'naviy-ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosari Sobir Xudoyqulovdan maktabning bugungi ahvoli va sport maydonlari xususida so'radik. Ammo u biror jo'yali javob berishdan ko'ra futbol maktabi rahbarini telefon orqali chaqirib qo'ya qoldi.

"Nasaf" PFK bosh menejeri Sergey Kucherenko bu bolalar va o'smirlar futbol maktabi ilgari klubga qarashli ekanini, bugungi kunda esa alohida yuridik tashkilot sanalishini ta'kidladi. Uning aytishicha, "Nasaf" PFK futbol maktabiga ba'zi sport anjomlaridan yordam berib turarkan, xolos.

Qashqadaryo viloyat futbol assotsiatsiyasi vitse-prezidenti Norqul Daminovning ta'kidlashicha, ushbu futbol maktabi ayni chog'da ham "Nasaf" PFKga qarashli. Bu borada kim haq?

Xulosa o'rnida

Nishon tuman bolalar va o'smirlar futbol maktabi eshigini bexosdan taqil-atib qo'ydikmi, deb o'ylanib qolasan kishi. Shu vaqtgacha hech bir mas'ul xodim bu maktab ostonasidan hatlamagan bo'lsa? 23 nafar xodim ishlaydigan maktab davlat tomonidan iqtisodiy ta'minlanadi. Lekin bunga javob qani? Tuman hokimligi e'tiboridan chetda qolib ketaversa, "Nasaf" PFK ma'muriyati faqatgina jihoz berish bilan cheklansa, viloyat futbol assotsiatsiyasi maktab faoliyati bilan qiziqmasa, ahvol shu yo'sin davom etaveradi. Bu ketishda umid bilan futbol maktabi tomon yo'l olgan bolalarning katta maydonlarda parvozi qanday kechadi? Mutasaddilardan javob kutib qolamiz.

O'ktam MEYLIYEV,
"Ma'rifat" muxbiri
Akbar RAHMONOV,
jurnalist

Yosh ixtirochilar taqdirlandi

Xalq ta'limi vazirligi tomonidan qator hamkor tashkilotlar bilan birgalikda "Youth techno art — 2019" bolalarning texnik ijodkorligi xalqaro festival-tanlovi tashkil etildi.

O'quvchilar o'rtasida fan va texnikani rivojlantirish, ularning robototexnika va muhandislik qobiliyatini ro'yobga chiqarish hamda texnik ijodkorligini oshirish maqsadida tashkil etilgan tadbirning ochilish marosimi Toshkent shahridagi Turin politexnika universitetida bo'lib o'tdi. Yig'ilganlar uchun dastlab o'zbek yoshlarining badiiy chiqishlari namoyish etildi. So'ngra Qozog'iston, Qirg'iziston, Arma-

niston, Iordaniya kabi davlatlardan kelgan 30 nafar va O'zbekistondan 22 nafar iqtidorli o'quvchi tanlov-festival doirasida o'zaro raqobatga kirishdi.

Ishtirokchilar avtomodel, avia-raketamodel, robototexnika, radiotexnika, elektronika va aloqa yo'nalishlarida ikki shart asosida baholandi. Dastlab nazariy shartda ishtirokchilar o'zi tayyorlagan ijod namunasining yaratilish tarixi, tuzilishi, foydalanilgan xomashyo haqida ma'lumot berishdi. Amaliy shartda esa ijod namunasining harakatlanishi va qanday vazifalarni bajariishi mumkinligi to'g'risida gapirib berishdi.

G'oliblarni taqdirlash marosimi Toshkent shahridagi "Flagman" restoranida bo'lib o'tdi.


— O'tgan yili tanlovning respublika bosqichida faol qatnashib, bu yilgi xalqaro festival-tanlovda ishtirok etish imkoniyatini qo'lga kiritgandim, — deydi "Youth techno art — 2019" bolalarning texnik ijodkorligi xalqaro festival-tanlovi 1-o'rin sohibi Asadbek Hasanov. — Bu gal avtomodel yo'nalishida o'zim yaratgan meva teruvchi mashina bilan qatnashdim.

Pishiqchilik davrida mashinaga to'rt kishi chiqib mevalarni mashina ustki qismida o'rnatilgan maxsus nasosga solib ketaveradi. Nasos esa mevalarni tortib oladi va skanerdan o'tkazadi. Bu orqali ularning qay holatdali aniqlanadi. Bu usul urinmagan, uzoq saqlanuvchi mevalarni eksport uchun saralashda qo'l keladi. Shuningdek, tanlov davomida ko'p do'stlar ortirdim. Chet ellik tengdoshlarim bilan o'zaro fikr almashdim.

Tanlov-festival doirasida bugun xorijlik ishtirokchilar va mehmonlarni mamlakatimiz tarixi, madaniy hayoti bilan yaqindan tanishtirish maqsadida qadimiy va navqiron Samarqand shahriga sayohat tashkil etiladi.

Jahongir MARDONOV,
O'ZJOKU talabasi

V.GRANKIN
olgan suratlar.



Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:

O'zbekiston Xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston Ta'lim, fan va madaniyat xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150. G-729. Tiraji 12112.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona — (71) 233-50-55;
kotiyyat — (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi —
(71) 233-42-92 (faks), (71) 236-54-17.



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqriz
qilinmaydi va muallifga
qaytarilmaydi.

Gazeta haftaning chorshanba va shanba kunlari chiqadi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Navbatchi muharrir: Sardor Mustafoyev.
Navbatchi: Faxriddin Rahimov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi.
Korxonalar manzili: Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

O'ZA yakuni — 00.50 Topshirildi — 01.50

12 456